

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**NAVOIY PEDAGOG XODIMLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

Pedagogika kafedrası

**PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI FANIDAN
MA'RUZALAR MATNI**

(2 - qism)

Tuzuvchilar: D.Axatova,
M.Shodiyeva,
X.Aliqulova

MUNDARIJA

24 - mavzu. Kirish. Maorif va pedagogika tarixi fan va o'quv predmeti sifatida	3
25 - mavzu. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha bo'lgan davrda ta'lim - tarbiya va pedagogik fikrlar	5
26 - mavzu. VII asrdan XIV asrgacha ta'lim - tarbiya vapedagogik fikr taraqqiyoti	10
27 - mavzu. XIV - XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar	17
28 - mavzu. XVII - XVIII asrlar va XIX asrning birinchi yarmida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar	23
29 - mavzu. XIX asrning 2-yarmi va XX asr boshlarida tarbiya, maktab	

va	pedagogik
fikrlar.....	28
30 - mavzu. 1917 - 1990 yillarda O'zbekistonda maktab va pedagogika fani	36
31 - mavzu. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va pedagogik fikr taraqqiyoti	41
32 - mavzu. Jahon pedagogika fani rivojlanishi tarixining obzori	47
33 - mavzu. Hozirgi bosqichda jahon rivojlangan mamlakatlarida ta'lim va tarbiya	52
Foydalanilgan adabiyotlar	58

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T., 1997 yil.
2. I.A.Karimov «Ma'naviy yuksalish yo'lida» T., «O'zbekiston» 1998 yil.
3. I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» T., «O'zbekiston» 1997 yil.
4. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi № 1 T., 2000 yil.
5. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar T., 2000 yil.
6. Pedagogika A.Munavvarov tahriri ostida T., 1996 yil.
7. O.R.Roziqov va boshqalar Didaktika T., «fan» 1997 yil.
8. O'zbek pedagogikasi antologiyasi № 1 T., o'qituvchi 1995 yil.
9. O'zbek pedagogikasi antologiyasi № 2 T., o'qituvchi 1999 yil.
10. T.Gulboev, M.Shodieva. Pedagogika nazariyasidan ma'ruzalar kitobi Navoiy № 1. 1998 yil №2 1999 yil.
11. N.G'aybullayev va boshqalar. Pedagogika ma'ruzalar matni. T., 2000 yil.

12. T.Gulboev yangi pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish. Navoiy 2001yil.
13. Tursunov I. Nishonaliyev U. Pedagogika kursi T., 1997 yil.
14. U.Mahkamov. Axloq-odob saboqlari T., 1994 yil.
15. E.G'oziev. Tafakkur psixologiyasi T., 1990 yil.
16. E.Yusupov. Ma'naviyat asoslari T., 1998 yil.
17. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi T., 1992 yil.
18. Musulmonova O. O'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish.
19. A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T., 1994 yil.
20. Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlari. Turli sohalar bo'yicha T., 1999 yil.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'lim - tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati haqida.
2. Maorif va pedagogika tarixi fan va o'quv predmeti sifatida.
3. Pedagogika tarixining maqsadi va vazifalari.

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim - tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr - oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim - qadimlarga borib taqaladi. Lekin mustaqillikka erishgunimizga qadar biz bu meroslarning baridan bebahra edik. Istiqlolimiz sharofati bilan milliy - madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni o'rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek: "mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda".

Bu esa qadimiy boy ma'rifiy merosimizning qimmatli manbalarini, bebaho xazinamizni yuzaga olib chiqish, uni hozirgi ilmiy - pedagogik tafakkur iste'moliga kiritishni taqoza etadi.

O'tmish ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizning ahamiyatini Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida alohida ta'kidlab deydi: "Xalqimiz tayanchi - ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim".

Prezidentimiz jamiyatimiz milliy mafkurasini yaratishda ham o'tmish mutafakkirlarimiz merosini muhim deb biladi. U bu mafkurani

yaratishda "milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu fuзалolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o'rganish darkor. Men bu o'rinda Abu Nosir Frobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning shu mavzuga daxldor asarlarini nazarda tutayapman.

Masalan, Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarini esga olaylik. Buning ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o'quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo'l - yo'riqlarni topa oladi", - deb yozadi.

3

I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasida ham o'tmish tariximiz va merosimiz ahamiyatini yorituvchi muhim asardir. Prezidentimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan fikrlari faqat ijtimoiy - siyosiy sohaga emas, balki ta'lim - tarbiyamiz va pedagogikamiz sohasiga ham taalluqlidir. Pedagogikamiz tarixini, o'tmishda ta'lim - tarbiya amaliyoti va nazariyasi qanday bo'lganligini bilmasdan turib hozirgi ta'lim - tarbiyamizda yuksak darajaga erishib bo'lmaydi.

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan urli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keladi.

Pedagogika tarixi ijtimoiy fan bo'lib, uning metodologik asosi yosh avlodni tarbiyalash an'alarini, jamiyatning taraqqiyot bosqichlaridagi o'qitish va kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta'lim - tarbiya, ma'rifatga doir g'oyalarini va ularning rivojlanishini mukammal o'rganadigan fandir.

Pedagogika tarixini o'quv kursi sifatida Oliy pedagogika o'quv yurtlarida o'rganish bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Pedagogika tarixi fanini o'rganish - kishilik jamiyati taraqqiyoti yo'lidagi tarbiya pillapoyalarining tajribalariga suyanagan

holda har bir o'qituvchida pedagogik madaniyat va ularga munosabat bildirish kabi malakalarni shakllantiradi.

Pedagogika tarixi kursi talabaning umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga to'g'ri munosabatda bo'lishga imkon beradi, ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni, jamiyatning sotsial iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogika tarixi kursini o'rgana borib, boshqa psixologiya - pedagogika turkumidagi o'quv fanlari kabi pedagogik tushunchalar yuzasidan fikr yuritishga hamda ularning mohiyatini tushunishga ham o'rgana boradi.

Pedagogika tarixi bo'lajak o'qituvchilarga bilim beribgina qolmay, ularda milliy iftixor va g'urur hissini ham tarbiyalaydi.

Umuman pedagogikamiz tarixini o'rganish millatimiz tarixini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Yosh avlodni tarbiyalash va ularni o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal etib bo'lmaydi.

Eng qadimgi madaniy boyliklarni o'rganishda pedagogika tarixi uch asosiy manbaga tayanadi:

Xalq ijodi materiallari.

Buyuk adib va allomalarning ijodiy merosi.

Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar.

Pedagogika tarixi uchun hukumatimizning ta'lim - tarbiyaga oid Qonun va qarorlari, prezidentiz I.A.Karimovning asarlari, ilg'or olimlarimizning pedagogik ijodlari, ta'lim - tarbiyaga oid kundalik matbuot materiallari ham muhim manba bo'lib hisoblanadi.

U bolalar manfaatini himoya qiladi. Bolalar sog'lom, o'qimishli bo'lib o'sishiga ko'maklashish, bolalar o'limi oldini olish, loaqal boshlang'ich ta'limni bepul berish, onalik va bolalikni himoya qilishga e'tibor qaratadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach bu tashkilot bizning mamlakatimizda ham o'z insonparvarlik faoliyatini boshlab yubordi. Tashkilotning yurtimizdagi faoliyati asosiy yo'nalishlari onalik va bolalikni himoya qilish, ularga kerakli tibbiy yordam ko'rsatish, turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy kafolatlarini himoya qilishdan iboratdir. Shu asosda dori-darmon, tibbiyot anjomlari va boshqalar keltirilmoqda.

MOT (XMT)- xalqaro mehnat tashkiloti- ish bilan ta'minlash, mehnat sharoitini yaxshilash, kasb mahoratini oshirish, iqtisodiy ahvolni yaxshilash kabi ishlarni amalga oshiradigan xalqaro tashkilot. Uning qudrati o'quv markazi bo'lib, bu Italiyaning Turin shahrida joylashgan.

O'zbekiston 1992 yil 13 iyuldan XMT ga a'zo. U bilan hamkorlik yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'limi tizimi va mazmuniga oid adabiyotlar yig'ish va qisqacha konspekt qilish

Ta'limni rivojlantirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilotlar yordamida O'zbekistonda olib borilgan ishlar haqida ma'lumotlar to'plash va tahlil etish.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

Rivojlangan xorijiy davlatlarda o'quvdasturlarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar haqida nimalarni bilib oldingiz?

Bu davlatlardagi o'quv kurslarini integratsiyalashtirishga sizning munosabatingiz qanday?

Ta'limni tabaqalashtirilgan holda olib borish uning ijobiy va salbiy tamonlari nimada deb bilasiz?

AQSh ta'lim tizimi tuzilishini ta'riflab bering.

Yaponiya ta'lim shoxobchalari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Frantsiyada boshlang'ich ta'limni berish bosqichlari va ulardagi o'quv dasturlari haqida gapirib bering.

Germaniyada majburiy ta'lim va bu ta'lim beriladigan maktab tiplariga qaysilari kiradi?

Turkiya ta'lim tizimiga sizning munosabatingiz?

Qaysi davlatdagi ta'lim tizimi va turlari sizga ko'proq ma'qul bo'ldi va nima uchun?

Ta'lim-tarbiya ishlarimizni yanada yaxshilash uchun qanday o'zgartirish, yangiliklar kiritish lozim deb bilasiz?

57

Boshlang'ich 4 yillik o'qishdan keyin o'quvchilar yo'nalish bosqichida maktabga o'tadilar. 5-6 sinfni o'qiydilar.

Keyin bolalar navbatdagi maktab tipiga ko'chadilar: bular- asosiy, maxsus maktab (rivojlanishda kechikkan yoki anomaliya holatida bo'lgan bolalar uchun); real bilim yurti (matematika va tibbiy fanlar o'qitiladi); gimnaziya; umumta'lim maktablari va h.k. Deyarli 30% bola 1-bosqichni tugatgandan keyin asosiy maktabga o'tadi. 9-10 yillik o'qishdan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi.

Real bilim yurti asosiy maktab va yuqori bosqich maktablari o'rtasida turadi. O'qish 6 yil (5-10 sinf) to'la o'rta ma'lumot beradi.

9 yillik gimnaziya (o'qish 5-13 yillik) Germaniyadagi yuqori bosqich, an'anaviy maktab hisoblanadi.

Germaniyada hunar ta'limiga katta e'tibor beriladi.

Har xil maktab turlari uchun turli muddatda o'qigan o'qituvchilar tayyorlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari xususiy, cherkov va bundesverga tegishli va viloyat tasarrufida bo'ladi. Ular o'z-o'zini boshqaradi. Uni rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident rahbarlik qiladi. Bularda o'qish diplom olish, magistr unvonini olish, davlat imtixonini topshirish bilan tugallanadi. Shundan so'ng o'qish davom ettirilib, doktorlik darajasini olish uchun imtihon topshiriladi.

Yunesko - BMTning ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bo'lib, 1946 yil tashkil

etilgan. Unga 180 ga yaqin mamlakat, jumladan O'zbekiston ham a'zo. Uning qarorgohi Frantsiyaning poytaxti Parijda bo'lib, uning oliy boshqaruv organi - bosh direktordir.

Yunesko faoliyatida xalqaro hamkorlik, tinchlikni saqlash masalalari asosiy o'rinni egallaydi. U ta'lim sohasining o'zida ham turli yo'nalishlarda ish olib boradi: rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi an'analarni tahlil qilish va ommalashtirish, mamlakatlarda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish va boshqalar.

O'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning nazariy-metodik saviyasini oshirib borish, ba'zi davlatlarda muammo bo'lib turgan xotin-qizlarning erkaklar bilan teng bilim olishini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish, darrlik va dasturlari takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va boshqa ko'plab masalalarni hal qiladi.

1992 yil 2 martda BMTga a'zo bo'lgach, 1993 yil 26 oktyabrda O'zbekiston Yuneskoga a'zo bo'ldi.

Yunesko tashabbusi bilan Frantsiyaning Parij shahrida Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubiley tantanalari, Samarqand, Xiva shaharlarining, Amir Temur tavalludining yubileylari va boshqa ko'plab tadbirlar o'tkazildi. «Buyuk ipak yo'li»ni o'rganish dasturi tuzildi va amalga oshirilmoqda.

Yunisef- 1946 yilning 11 dekabrda BMT bosh Assambleyasining 1-sessiyasida BMTning favqulodda Bolalar fondi nomi bilan tarkib topgan. Uning mablag'i boshda urushda jabr ko'rgan bolalarga yordam tariqasida berildi

56

Atoqli mutafakirlarimizning ta'lim - tarbiya sohasida qoldirgan muhim fikrlarini o'rganish, pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga imkon beradi. Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyanagan holda turli pedagogik

nazariyalarni, ta'lim - tarbiya mazmuni va metodlarini o'rgatadi. O'tmishning pedagogik tizimlarida bo'lgan ilg'or fikrlardan ijodiy foydalanadi.

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Prezident I.A.Karimov asarlaridan ajdodlarimiz imliy va madaniy meroslaridan foydalanish to'g'risidagi fikrlari o'rganish va qisqacha konspekt qilish.

Pedagogika tarixi bo'yicha zaruriy adabiyotlar yig'ish.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

I.A.Karimovning qaysi asarlarida ajdodlarimiz merosi va ulardan foydalanish haqida gapiriladi? O'qigan asarlaringizdan misollar keltiring

O'tmish merosimizga sizning munosabatingiz.

Pedagogika tarixini urganishning ahamiyatini nimada deb bilasiz?

Pedagogika tarixini o'rganish qanday davrlashtiriladi?

Pedagogika tarixining boshqa fanlar bilan aloqasini qanday tushunasiz?

Pedagogika tarixini o'rganishning asosiy manbalari nimalar?

25 - MAVZU. ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA BO'LGAN DAVRDA TA'LIM - TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR.

REJA:

1. Tarbiyaning kelib chiqishi, uning kishilar mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy jamiyatda tarbiya.
2. Eng qadimgi yodgorliklar va xalq og'zaki ijodida ta'lim va tarbiyaga oid fikrlar.

3. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta'lim - tarbiya masalalarining talqin etilishi.
4. "Avesto" - eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik sifatida, uning tarbiyaviy ahamiyati.

Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlarda mehnat faoliyati jarayonida ishlab chiqarish tajribalari, mehnat qilish malakalari va mehnat qurollarini ishlatish ko'nikmalari hosil bo'ldi. Bu qurollarni takomillashtirish natijasida nutq va tafakkur o'sib, kamol topa bordi. Keksa avlod mehnat qilish jarayonida orttirgan tajribasi asosida yosh avlodni ham mehnat qilishga o'rgatdi, uni mehnat jarayonida tarbiyaladi.

Shunday qilib, kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan tarbiya ham vujudga keldi, u bilan birga taraqqiy etdi, jamiyatning o'zgarishi bilan u ham o'zgarib bordi.

5

Tarbiyaning ijtimoiy vazifasi kishilarni bilim, malaka, ko'nikmalarda aks etgan mehnat, bilim tajribalarini avloddan - avlodga etkazishdir. Tarbiyani amalga oshirish jarayonini anglash va bu sohadagi tajribalarni o'rganishga bulgan ehtiyojning tug'ilishi pedagogika fanini yuzaga keltirdi.

Shaxs jamiyatdan tashqarida kamol topa olmaydi, jamiyatdan tashqari tarbiya ham bo'lishi mumkin emas. Tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat hayoti, uning to'xtovsiz taraqqiy etib borishi tarbiyasiz bo'lmaydi. Tarbiya bo'lmasa, jamiyat ham bo'lmaydi, jamiyat usiz yashay va taraqqiy eta olmaydi.

Ibtidoiy jamiyatda kishilar o'rtasida tengsizlik, xususiy mulk bo'lmagan. Mehnat va ijtimoiy funktsiyalarning taqsimlanishi tabiiy - biologik negizga asoslangan, buning natijasida erkaklar va ayollar o'rtasida mehnat taqsimoti mavjud edi, kishilar yosh jihatidan jamolarga bo'linganlar. Urug'chilik jamiyatidan oldingi jamiyat yosh jihatdan 3 guruhga bo'lingan edi:

Bolalar va o'smirlar.

Hayot va mehnatning to'la huquqli va to'la qimmatli ishtirokchilari.

Umumiy hayotda to'la suratda ishtirok etish uchun jismoniy kuchi bo'lmagan keksalar.

Ibtidoiy jamiyatda bola o'zining hayot faoliyati jarayonida kattalarning ishlarida qatnashib, ular bilan kundalik muomalada bo'lib, tarbiyalanar va ta'lim olar edi. O'g'il bolalar katta yoshdagi erkaklar bilan ov qilish, baliq tutish, qurol yasashda qatnashar, qizlar esa ayollar rahbarligida ekin ekib, hosil yig'ish, ovqat pishirish, idish yasash, kiyim tayyorlash ishlarida qatnashganlar. Matriarxat taraqqiyotining oxirgi bosqichlarida yosh alodning yashashi va tarbiyalanishi uchun ug'il bolalarga alohida va qizlarga alohida - birinchi tarbiya muassasalari - Yoshlar uylari paydo bo'ladi. Yoshlar uylarida bolalar urug' oqsoqollari rahbarligida tarbiyalangan, mehnatga o'tkaziladigan "sinovlar"ga tayyorlanar edilar.

Patriarxat urug'chilik jamoasi bosqichida chorvachilik, dehqonchilik va boshqa kasb - hunar paydo bo'lib, rivojlanib bordi. Bir muncha tashkiliy ravishda tarbiya qilish zarurati tug'ilishi bilan yoshlarni tarbiyalash tajribali kishilarga topshiriladigan bo'ldi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan birga bolalarga dalalarni o'lchash, suv toshqinlarini oldini olish, odamlarni davolashga oid bilimlar avj oldi. Natijada maktablarga va yozuvga ehtiyoj sezila boshladi. Dastlab suratli piktografik xat paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamalakatlardan kirib kelgan harf bilan yozish usuli paydo bo'ladi va tez tarqala boshlaydi.

Er.Av. birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyin esa yunon yozuvi shu bilan birga forsiy mixxat ham ma'lum vaqtlargacha qo'llanib kelingan.

O'sha davrda Xorazm, Sug'd, Kushan, Run, Uyg'ur va boshqa yozuvlar paydo bo'lgan va bu yuksalish ta'lim - tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Inson ibtidoiy jamoa bulib yashash tarzini asta - sekin rivojlantirib borib, jahon madaniyatida katta kashfiyotlar yaratdi. Xitoyda qog'ozning ixtiro etilishi, Hindistonda hisoblash o'nlik tizimining paydo bo'lishi, Mesopotamiyada er kurrasini graduslarga,

Yaponiyada ota-onalar bolalari tarbiyasiga katta e'tibor berishadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasi doimo e'tiborda bo'ladi.

Yaponiyada 460 ta universitet bo'lib, ularda 1 mln 43 ming talaba tahsil oladi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar soni jihatidan Yaponiya 2-o'rinda turadi. Ming ishchiga 190 ta oliy ma'lumotli mutaxassis to'g'ri keladi. Bu AQShda ming kishiga 294, Buyuk Britaniyada 138, Frantsiyada 115 nafardir.

Frantsiya ta'lim tizimi boy va qadimiy tarixga ega. Hozirda amal qilayotgan qonun 1989 yil qabul qilingan.

Frantsiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tamonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Davlat, xususiy va oraliq maktablar bor. Haftalik soat 26 soat, dars 60 minut, sinfda 35-40 o'quvchi bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya- «Onalar maktabi» deb ham yuritiladi bunga 100 % bolalar tortilgan.

Boshlang'ich ta'limga- 6-11 yoshli bolalar jalb etiladi. Bu maktab majburiy va bepuldir. O'qish 5 yil va u 3 bosqichga bo'linadi:

tayyorlov bosqichi- 1 yil;

2-bosqich- elementar kurs bo'lib, 2 yil davom etadi;

3-bosqich- chuqurlashtirish bosqichidir. Tayyorlov va elementardagi bilimlar chuqurlashtiriladi.

Dasturlarda o'quv predmetlarining barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yilgan.

O'rta ta'lim 11 yoshdan boshlanib, kollej va litseylarda davom etadi. Ikki bosqichda beriladi. 1-bosqich (11-15 yosh) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5-4 o'rta, 3-sinf katta sinf hisoblanishi 6-5 sinflarda umumiy o'rta ta'lim beriladi: 4-3 sinflarda o'quvchilar qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

2-bosqich 15-18 yosh, o'qish 3 yil davom etadi. 3-sinf kichik, 1-sinf o'rta va yakunlovchi sinflarga bo'linadi.

Oliy ta'lim Frantsiyada universitetlar va turli oliy maktablarga beriladi. Universitetlar 3 siklda bilim beradi. 1-tsiklda umumiy yoki biror texnik, ilmiy sohada oliy ma'lumot beradi, o'qish ikki yil. 2-tsiklda o'qish, 1 yil, metriz, magistr darajalari beriladi. 3-tsiklda 1-2 yil o'qiladi, diplom, yoki doktorlik dissertatsiyasi yoqlashi mumkin. Sirtqi ta'lim ham keng yo'lga qo'yilgan.

Germaniya bilan O'zbekistonning ta'lim sohasidagi hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Maktabgacha tarbiyaga 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80 foizi jalb etilgan. Bularda ta'lim tabaqalashtirib olib boriladi. Sobiq GDRda 93 % bolalar bog'chalarga tortilgan bo'lib, 3 yoshgacha bolalar yasilarda tarbiyalangan. Bular davlat tasarrufida edi.

Maktab ta'limi. Majburiy ta'lim 6-18 yosh bo'lib, 12 yil davom etgan. Davlat maktablarida o'qish tekin. Xususiy maktablar ham bor.

Boshlang'ich maktab 6 yoshdan boshlanadi, 4 yil davom etadi. (Berlinda 6 yil). Dastlabki 2 yilda baho qo'yilmaydi.

55

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. O'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin. O'quv yili 180 kun, dars 45-50 minut. O'quvchilar ta'tilda ishlaydilar.

AQSh ta'lim tizimiga eng ko'p mablag' ajratiladi. Bolalarning 95-99 %i boshlang'ich o'rta ta'limga tortilgan.

Bu erda 3 yoshgacha bolali ayollarga moddiy imtiyozlar berilmaydi. 3-5 yoshda xususiy yoki davlat bog'chalariga boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quv predmetlari o'quvchilarning umumiy savod xonligini ta'minlab berishdan tashqari ma'lum darajada kasb yo'nalishiga ham ega qiladi. O'quv-tarbiya ishlari bilan bog'liq masalalarni har bir shtat o'zi mustaqil hal qiladi. Boshlang'ich maktab ham turlicha: 4, 5, 6, 8 yillik bo'lishi mumkin. Bu davrda ingliz tili, ijtimoiy fan, tabiat va gigiena, matematika, hunarmandchilik, badantarbiya va sport o'rgatiladi.

AQShda to'laonli o'rta maktab sirasiga 10, 11, 12- sinflar kiradi. 7, 8, 9- sinflarni aksariyat holda quyi o'rta maktab deb ham yuritiladi.

O'rta maktablar o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasbkor, umumiy yo'nalishlarda bilim beradi. Ko'rgazma; texnik vositalardan keng foydalaniladi.

Oliy ta'lim 4 bosqichda amalga oshiriladi: kichik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Birinchi bosqichni bizdagi o'rta maxsus o'quv yurtiga tenglashtirish mumkin. Bu 2 yillik kollej, keyin 11 bosqich 4 yillik kollej va universitetlardir. Buni bitirganlar 1-darajali bakalavr bo'ladi. 111 bosqich-magistr maktabi, o'qish 1-2 yil, IV bosqich-doktarantura, o'qish 3-4 yil.

AQShda ko'plab chet ellik talabalar ham o'qiydi. (350 mingdan ortiq).

AQSH ta'lim tizimidagi o'quvchini mustaqilligini o'rgatish, yangicha dars texnologiyasini o'rganish va tadbqiq etish, yo'nalishi va ayrim predmetlarni chuqurlash-tirib o'rgatish kabi masalalarni bizda ham keng o'rganib va qo'llab ko'rsa bo'ladi.

Yaponiyada 1872 yili ta'lim haqida qonun qabul qilinib, yangi yo'nalishdagi o'quv yurtlari tashkil etila boshlaydi. 1908 yilga kelib boshlang'ich ta'lim 6 yillikka aylantiriladi. O'quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo'ldi. 1947 yil «Ta'lim haqida qonun» qabul qilindi. Yaponiya ta'limi tizimi quyidagicha: - bolalar bog'chalari, - boshlang'ich maktab, - kichik o'rta maktab, - yuqori o'rta maktab, - oliy ta'lim tizimiga kiruvchi o'quv yurtlari.

Bolalar bog'chalariga 3-5 yoshlilar qabul qilinadi. Ularning 59,9 % xususiy, 49,8 %i tuman kengashlari tasarrufida 0,3 %i davlatnikidir.

Majburiy ta'limga 6-15 yoshlilar jalb etiladi. 6 yillik boshlang'ich va 3 yillik kichik o'rta maktabda o'qiydilar. 9 yillik bu ta'lim majburiydir. O'qish va darsliklar tekin. Xoxlovchilarga xususiy maktablar ham bor.

Yuqori bosqich o'rta maktabning kunduzgi, kechki, sirtqi bo'limlari bor. 95% bola kunduzi ta'lim oladi. O'qish ixtiyoriy. 3 yillik.

Oliy ta'lim tizimiga kollejlar universitetlar kiradi. Bulardan tashqari turli «ixtisos maktablar» ham bor.

Yaponiya maktablarida o'qish 1 apreldan boshlanib, keyingi yil 31 martida nihoyasiga etadi. O'quv yili 240 kun, darslar 7 soat. O'qituvchilar 4 yillik dorilfunun va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi.

54

sutkani soat, daqiqa va soniyalarga bo'lishning joriy etilishi, Markaziy Osiyoda O'rta dengiz bilan Hindistonni bog'lovich karvon yo'lining vujudga kelishi, keyin Markaziy Osiy orqali Xitoydan O'rta dengizga "Buyuk ipak yo'li"ning ochilishi kabi muhim voqealar madaniyatning taraqqiy etishi va yozuvning tarqalishiga sabab bo'ldi.

Demak, eramizning boshlarida hozirgi Markaziy Osiyo hududida yunon va oromiy alifbosi asosida Xorazm, Sug'd, Baqtriya yozuvlari shakllangan.

Eramizdan avvalgi taxminan 484-431 yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" kitobida qadimgi forslar, saklar va massagetlarning ta'lim - tarbiyaviy qarashlariga oid muhim ma'lumotlar berilgan.

Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir, - deb yozadi olim, - shunga ko'ra ular ko'proq o'g'illarga ega bo'lishdan faxrlanishgan. Podshoh ham kimning o'g'li ko'p bo'lsa, unga sovg'alar yuborib turgan. O'g'il bolalarni 5 yoshdan 20 yoshgacha faqat uch narsaga: otida yurish, kamondan otish, to'g'rilikka o'rgatishgan. O'g'il hech qachon ota - onasini behurmat qilmagan.

Gerodotning yozishicha forslar uchun yolg'onchilik va qarzdor bo'lish sharmandalik hisoblangan, ular daryo suviga tupurmaganlar, hatto unda qo'l yuvmaganlar, daryolarni muqaddas sanaganlar.

Yana bir tarixchi Plutarx fors ayollarning qahramonona jasoratlari haqida yozadi. Yana uning yozishicha Aleksandr Makedonskiy erli xalqlarga yaqinlashish maqsadida 30 ming bolani ajratib olib, ularga yunon tili va harbiy san'atini o'rgattiradi. Keyinchalik yunon alifbosi qabul qilinib, maktablarda shu asosida o'qitiladi.

Xitoy tarixchilari, ulardan Syuan Szin Samarqand aholisi axloqi va xulq - odobi bilan boshqalarga o'rnak bo'lganligi haqida yozadilar. Bulardan qadimda bolalar o'qitiladigan savod maktablari

bo'lganligi, bundan tashqari harbiy mashqlarga o'rgatilganligi ham ma'lum bo'ladi.

Eng qadimgi davrlardagi ta'lim - tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz xalq og'zaki ijodi namunalari - afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ham ko'ramiz.

Ayniqsa, ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, odatlari, munosabatlari xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan hisoblangan afsonalarda ifodalangan.

Eposlarda xotin - qizlarning fidoyiligi, jasorati, aql - idroki, erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko'rsatganliklari ifodalanadi. Sak va massaget qabilalari eposlari ayniqsa mashhurdir. Polienning "Harbiy xiyalalar" asarida Shiroq afsonasi keltiriladi.

Gerodotning "Tarix" kitobida keltirilgan massagetlar hukmdori Tumaris va Eron shohi Kir haqidagi rivoyatlar ham o'ziga xosdir.

Bulardan tashqari feodal jamiyati boshlarida yaratilgan "Er xubbi", "Chistoniyalik bek", "Siyovush", "Rustam" singari afsona va qahramonlik dostonlari ham katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Umuman xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida ham ta'lim - tarbiya, yoshlarning axloqiy barkamolligi masalalariga juda katta e'tibor qaratilganki, biz bulardan o'tmish ajdodlarimizda tarbiya ishlari qanday bo'lganligini, qaysi axloqiy xislatlar ulug'langanligi - yu, qaysi sifatlar qoralanganligini ham bilib olishimiz mumkin.

7

Turkiy xalqlarning "Urxun - Enasoy yodgorliklari", "Irq bitiklari" kabi yozma ma'rifiy yodgorliklar ham borki, ularda tarbiyaviy xarakterdagi qarashlarni ko'rishimiz mumkin.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan turk - runiy yozuvida bitilgan Urxun - Enasoy bitiklari VI - VIII asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim - tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi. Toshga o'yib yozilgan Urxun - Enasoy yodgorliklari dastlab Enisey (Enasoy) havzalarida, keyin Mo'g'ulistonning Urxun daryosi bo'yida topilib, daniyalik olim Vilgelm Tomson 1893 yilda uni birinchi bo'lib o'qigan. Ko'plab olimlar bu yozuvlar ustida tadqiqotlar olib borganlar.

VI asrlar o'rtalarida Oltoy, Ettisuv, Markaziy Osiyo hududlarida turk hoqonligi tashkil topgan edi. 604 yili hoqonlik bo'linib ketgan va VIII asr o'rtalarida tugatilgan.

Turk hoqonligi asosan 3 kishi: Bilga hoqon (Mo'g'ulon), sarkarda Qul tegin, vazir Tunyuquqlar qo'lida markazlashgan edi.

Bitigtoshlarda turk hoqonlarining yurishlari, jasoratlari, ularning bilimli, mard, xalqparvar alp yigitlar ekanligi bayon etiladi. Masalan, Qo'l tegin bitigida u xalqparvar, tadbirkor, o'z manfaatidan Vatan manaatini yuqori qo'yadigan shaxs sifatida ta'riflanadi. Qo'l tegin Eltarish hoqonning kichik o'g'li, u 731 yil 29 fevralda 47 yoshida vafot etadi. Bitig tosh 732 yili o'rnatilgan. Bitigdagi voqealar Qo'l teginning akasi Bilga hoqon tilidan hikoya qilinadi. Bitig muallifi Qul teginning jiyani Yo'llug' tegindir.

Bitigda yana Bilga eng muhim insoniy xislatlar, hayotiy zaruriyatlar haqida pand - nasihat beradi. Xalkni birlashishga chaqiradi, o'zaro do'stlik, ittifoqlik, vatan manfaati uchun kurashga chorlaydi.

Ikkinchi bitig Bilga hoqon haqida. Bu 735 yili o'rnatilgan. Bilga 734 yili o'ldirilgan. Bitig Yo'llig' tegin tomonidan zilgan. Bu bitigad Bilga hoqonning yurishlari ko'rsatiladi. Bilga elparvar hoqon deb taniladi. U turk xalqining vatani abadiy bo'lishi uchun kurashadi. Hoqonga xos bo'lgan hislat va fazilatlar haqida gapiriladi.

Uchinchi - Tunyukuk bitigi 717 - 718 yillarda, Tunyukuk hayotligida yozilgan. Tunyukuk vatanparvar, insonparvar shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Bu bitiglar asosida turklarning turmush tarzi, jamiyat a'zosining axloqiy qiyofasini belgilovchi muhim sifatlar haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Qadimiy yozma yodgorliklardan "Irq bitigi" XIX asr oxirida Sharqiy Turkistonning Dunxuan degan joyidan topilgan. U haqda ma'lumot kam. Asar yuz betdan iborat bo'lib, moniy jamoasidagi Isig Sangun va Ite chuk ismli ikki bola uchun bitilgan. Asar mazmunini nima yaxshi-yu, nima yomonligini tushunish, anglab etish tashkil etadi. Ana shu yaxshi va yomonning ta'rifi zaminida axloqiy talablar talqin

etiladi. Asarda turkiy xalqlarning turmush i, axloqiy munosabatlari asosan qushlar va hayvonlar obrazi orqali aks ettiriladi.

"Irq bitigi"da eng qadimgi ajdodlarimizning xalq og'zaki ijodiga xos, mifologik hamda totemistik ifodalar o'z aksini topgan. Voqealar tush va uning ta'birlari tarzida bayon etiladi.

Umuman bu yodgorliklarda inson kamolotini kuylashga e'tibor qaratilgan. Ularda ajdodlarimizning xulq - odobiga oid dastlabki tasavvurlari, ezgulikka bo'lgan intilishlari ifodalangan.

8

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir.

Ularda o'quv dasturlarini takomillashtirish va qayta qurishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularni o'zgartirish 2 asosiy yo'nalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

Ekstensivda o'quv muddati uzaytiradi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; intensiv holatda esa yangi dastur yaratiladi. 2-yul ma'qul deb topishmoqda.

1961 yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSh o'rta maktablarini isloh qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (4 y), matematika (4 y), tabiiy bilimlar (3 y), ijtimoiy fanlar (3 y), kompyuter texnikasi (0,5 y) kabilar iborat 5 yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi.

O'quv dasturlarini qayta ko'rish jarayoni G'arbiy Ovrupa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv reja va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar. Bunga ko'ra 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan «yadro» predmetlar: ingliz tili va adabiyoti, matematika, din darsi, jismoniy tarbiyaga ajratiladi, qolgan vaqt tanlab olingan predmetlarga beriladi.

Hozirgi paytda o'quv dasturlariga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshiriladi.

Integratsiyalashtirilgan o'quv dasturlarining mualliflari barcha yondosh o'quv kurslarini o'zak predmet va g'oya atrofida

jipslashtirishga harakat qilishadi, bu o'quvchilarga ijobiy tafakkur yurgizishga yordam beradi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohatlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi. Bu yuzasidan ham turli qarashlar mavjud. Ta'limda ijtimoiy tengsizlik hukm surayotganligi aytiladi.

Frantsuz pedagoglari o'quvchilarni uch tabaqaga ajratadilar:

Gomogenlar- matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib bora bo'ladigan o'quvchilar;

Yarim gomogen- tabiiy sikldagi fanlarni o'zlashtirishga moyil o'quvchilar;

Gegeron- barcha predmetlardan har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilar.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor ortib bormoqda. Bular uchun o'quv dasturlar murakkab tuzilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

3-5 yoshgacha bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari;

1-8 sinflar uchun boshlang'ich maktablar (6-13 yoshda o'qiydilar);

9-12 sinflar uchun o'rta maktablar (14-17 yoshlilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat;

oliy ta'lim, bu 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda universitetlarda amalga oshiriladi;

universitet va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktorantura.

53

Komenskiy axloqiy tarbiya va o'qituvchi haqidagi fikrlari va ularga sizning munosabatingiz qanday?

I.G.Destotstsiy eksperimentlarining mohiyati nimadan iborat edi va uning muvoffaqiyatsizlikka uchrash sabablari?

A.Distervegning umuminsoniy tarbiya g'oyasini qanday tushundingiz?

K.D.Ushinskiyning darslik va asarlari, uning pedagogika tizimida xalqchilik g'oyasi, ona tiliga munosabati?

L.Tolstoy "erkin tarbiya" nazariyasining mohiyati nimadan iborat?

A.S.Makarenkoning qaysi asarlarini o'qigansiz, ularga munosabatingiz qanday?

XIX asr oxiridagi "eksperimental", "progmantik" pedagogik oqimlar, ularning ijobiy va salbiy tamonlari.

33- MAVZU: HOZIRGI BOSQICHDA JAHON RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDA TA'LIM VA TARBIYA.

REJA:

1. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, tabaqalashtirilgan ta'lim.
2. AQSH va Yaponiyada ta'lim tizimi va turlari.
3. Frantsiya, Germaniya ta'lim tizimi va mazmuni.
4. Ta'limni rivojlantirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilotlar.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ta'lim sohasini isloh qilish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda «rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash»ga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida» ta'limimiz tizimi va mazmuni xalqaro standartlar talablariga javob beradigan holda tashkil etilishi talab etiladi. Bu qonun hujjatlarida ta'lim-tarbiya sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish choralari belgilab berildi. Yurtboshimiz o'z nutqlari va chiqishlarida ham bunga oid qator ko'rsatmalar berdi. Masalan, Oliy Majlis IX sessiyasida so'zlagan nutqida shunday deydi:

"Oliy o'quv yurtini isloh qilayotganda ularning boshqa davlatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan aloqasini mustahkamlash zarur. O'z domlalarimiz bilan cheklanib qolmay, chetdan ham domlalar chaqirishni yo'lga qo'yishimiz kerak".

Shu ko'rsatmalar asosida 1997 yil iqtidorli yoshlarni chet elda ta'lim olishlarini ko'llab-quvvatlovchi «Umid» jamg'armasi tashkil etildi.

Professor-o'qituvchilarning xorijiy davlatlarda tajriba o'rganishlari, yangi texnologiyalar bilan tanishishlari uchun «Ustoz» respublika jamg'armasi tuzildi.

Shunday ta'lim sohasidagi xalqaro aloqalar kuchayib borayotgan bir paytda bulg'usi o'qituvchilar va umuman barcha ta'lim xodimlari ham jahon pedagogikasini, ayniqsa, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlarini bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz.

52

"Avseto"da O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining eng qadimgi (er.av. 2-ming yillikning oxirlaridan 1-ming yillikning keyingi asrlarigacha bo'lgan) davrdagi tarixi, ijtimoiy - iqtisodiy hayoti, maishiy turmushi, axloqi, urf - odat, diniy qo'shiqlari, chorvachilik - dehqonchiligi, savdo - sotig'i, qo'shni xalqlar bilan iqtisodiy - madaniy munosabatlari yoritilgan. Bir qarashda "Avesto" sof diniy mazmundagi kitobdek tuyuladi, biroq u falsafa, tarix, axloq, xalq og'zaki ijodiyoti, geografiya, biologiya, ruhshunoslik, tarbiyashunoslik, falakkiyot, tabobat va boshqa maslalarga doir qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Bu kitobning tarixiy manba sifatidagi roliga katta baho bergan yurtboshimiz I.A.Karimov shunday deydi: ""Avesto" ayni zamonda bu qadim ulkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi"

Olimlarning mulohazalariga ko'ra "Avesto"ning asoschisi Zardo'sht bo'lib, eramizdan oldingi VI asrda Xorazmda yashagan. U chorvachilik bilan shug'ullangan Spitama urug'idan bo'lib, onasi Dugdava, otasi esa Paurushaspadir.

Zardusht ko'pxudolikka qarshi chiqib, 20 yoshida nor tuyasiga minib (Zardusht - sariq tun egasi demakdir), qishloq va shaharlarda yakkaxudolik g'oyasini olg'a surdi.

Xorazm hukmdorlari ta'qiblari natijasida Zardusht bir guruh tarafdorlari bilan Eronga qochib o'tadi va o'z ta'limotini uzil - kesil shakllantiradi. Eron shohi Vishtaspgga o'z diniy ta'limotini asoslab beradi va uning e'tiborini qozonadi. Eronu Turonda otashparastlik dini to'la joriy etiladi. Zardusht 77 yoshida Balx shahrida ko'pxudolik tarafdorlari tomonida o'ldiriladi.

"Avesto" er.avv. VI asrda yaratilgan bo'lib, to'liq kitob holida er.avv. I asrda shakllangan. U 12 ming mol terisiga oltin harflar bilan yozilgan degan ma'lumotlar bor.

"Avesto"ning to'rta: Yasna, Yashta, Vispered, Vendidat qismlari bizgacha etib kelgan.

"Avesto" uzoq asrlar maboynida bolalarga ilm - ma'rifat o'rgatishda va axloq odob fazilatlarini shakllantirishda dasturul amal bulib kelgan. Zardusht ta'lim - tarbiya masalalariga alohida ahamiyat berib deydi: "tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin".

Kitobda bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagicha tavsiya etiladi: a) diniy va axloqiy tarbiya, b) jismoniy tarbiya, v) o'qish va yozishga o'rgatish.

Zardushtiylar bolalar ta'lim - tarbiyasiga katta e'tibor berganlar.

"Urxun - Enasoy yodgorliklari", "Irq bitiklari" va ularga oid adabiyotlarni o'rganish.

Xalq og'zaki ijodiga oid qaharamonlik eposlaridan namunalar yig'ish va muhokama etish.

""Avesto"da ta'limiy - axloqiy masalalarning ifodalanishi" mavzusida seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

Tarbiyaning kelib chiqishi va uning mehnat faoliyati bilan bog'liqligini tushuntirib bering.

Ibtidoiy odamlar hayotidagi tarbiyaning o'ziga xos tomonlari nimalarda ko'rinadi?

Ajdodlarimizning eng qadimgi davrdagi ta'lim - tarbiyasiga oid masalalarni qanday manbalar orqali bilishimiz mumkin?

Xalq og'zaki ijodidan ta'lim - tarbiyani ifodalovchi misollar keltiring.

"Urxun - Enasoy yodgorliklari", "Irq bitiklari"ning tarbiyaviy ahamiyatini qanday tushundingiz?

"Avesto" va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida qaysi manbalardan, nimalarni bilib olgan edingiz?

Ibtidoiy jamiyatda kishilar yosh jihatidan qanday guruhlarga ajratilgan va uning mohiyati nimada deb bilasiz?

26 - MAVZU. VII ASRDAN XIV ASRGACHA TA'LIM - TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

REJA:

1. Islom dinining yoyilishi va uning ta'lim - tarbiyaga ta'siri.
2. Hadis ilmining paydo bo'lishi, uning yo'nalishlari, muxaddislar.
3. Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim - tarbiyaning taraqqiy etishi.

a) Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning umumpedagogik g'oyalari.

b) Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, az-Zmaxshariy asarlarida ta'limiy - axloqiy g'oyalar.

4. Tasavvuf ta'limotida ta'lim - tarbiya masalalari.

VII asrdan keyingi pedagogik qarashlar va madaniyat haqida gapriganda shu narsaga amin bo'lamizki bu masalalar O'rta Osiyo tarixida islom dini g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki shu davrdan boshlab bizning yurtimizga ham islom dini g'oyalari kirib kela boshlagan edi.

XII asrboshlarida islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o'z movqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabt etishni boshladi. Butun Arabiston yarim oroli, shuningdek, Eron, Kavkaz orti, Suriya, Shimoliy Afrika, Ispaniya xalifalik tarkibiga kiritildi.

10

Axloqiy tarbiyaga katta ahamiyat beradi, uni hatto aqliy tarbiyadan ham ustun qo'yadi. Axloqiy tarbiya vositalarini ko'rsatadi: 1. Ta'lim, 2. O'qituvchining shaxsiy namunasi, 3. E'tiqod, 4. Pedagogik mahorat, odob, 5. Ogohlantirish, 6. Rag'batlantirish va jazolash.

L.N.Tolstoy (1825-1910) ning pedagogik faoliyati 1848 yildan boshlanadi. "Yasnaya Polyana"da dehqon bolalarini o'qitadi. Bu faoliyat to'xtashlar bilan umrining oxirigacha davom etadi. "Yasnaya polyana" jurnalini chiqaradi. 1872 yil "Azbuka", 1875 yil "Novaya Azbuka", va 4ta "O'qish kitobi"ni nashr ettiradi.

Tolstoy o'z pedagogik tizimida "erkin tarbiya" nazariyasini olg'a suradi. Bu bola shaxsini hurmat qilishga asoslangan. Uning maktabida o'qish, yozish, din darsi, tarix, arifmetika, tabiat fanlari o'qitilgan. Qat'iy o'quv reja, dastur, darslik bo'lmagan. Uy vazifasi berilmagan.

O'qitishning metodlari ta'lim printsiplariga oid qarashlari ham ahamiyatlidir.

A.S.Makarenko (1888-1939) ukrain pedagogi. 1905 yildan o'qituvchilikni boshlaydi. Poltava o'qituvchilar institutida o'qiydi.

1920 yili "M.Gorkiy" nomidagi mehnat koloniyasini tuzadi, jinoyatchi bolalardan 120 dan ortig'ini tarbiyalaydi. 1927 yildan

Harkovdagi "F.Dzerzenskiy" nomidagi kommunada ish boshlaydi. Mehnatga katta e'tibor qaratiladi. Turli narsalar yasashadi.

1933-35 yillarda "Pedagogik poema", "Ota-onalar kitobi" (1937), 1938 yilda "Minoradagi bayroqlar" asarlari chiqadi.

U "jamoada va jamoa orqali tarbiyalash" g'oyasini olg'a suradi. Makarenko mehnat bilan birga axloq tarbiyasi, bolada or nomus, iroda, xarakter va intizom tarbiyalashga alohida e'tibor beradi. Jazolash va rag'batlantirishga qo'yilgan talablarini bayon etadi. U oila tarbiyasiga oid muhim masalalarni yoritadi. Bola tarbiyasida ertaklar, kitoblar, teatr, kino va o'yinning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Bolaning estetik tarbiyasiga alohida ahamiyat beradi.

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQ

1. Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarini o'rganish, qisqacha konspektlashtirish.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

Qadimgi Afina va Sparta tarbiya tizimidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib bering.

M.F.Kvintilianning "Notiq tarbiyalash to'g'risida" asari va Rimdagi ritorlar maktabiga munosabatingiz qanday?

Ya.Komenskiy yaratgan darslik va asarlaridan qaysilarini bilasiz, avval ham ular haqida eshitganmisiz?

Komenskiy bola yoshini qanday davrlarga buladi?

Komenskiy ta'limning qaysi printsiplarini olg'a suradi, ularning ahamiyati qanday?

Iogann Genrix Pestolotstsi (1946-1827) Shveytsariyaning Syurix shahrida vrach oilasida tug'iladi. Uni onasi tarbiyalaydi. Qishloqqa bobosinikiga borib turadi, dehqonlarning og'ir ahvoli bilan tanishadi, ularning ahvolini yaxshilash uchun kurashadi.

Kollegiumning filologiya va falsafa bo'limlarida o'qiydi.

1769 yildan sotsial eksperiment boshlaydi. Qo'rg'on, er sotib olib ("Neygof") dehqonlarga namunali ferma tashkil qilish tajribasini o'rgatmoqchi bo'ladi, lekin tezda sinadi.

1774 yil "Neygof"da kambag'allar muassasasi ochib, etim bolalardan 50 tasini to'playdi. O'qishni mehnat bilan qo'shib olib boradi. "Lingard va Gertruda" (1781-87), "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi", "Son to'g'risida ko'rgazmali ta'lim (XIX asr boshlarida) kitoblarni yozadi.

1798 yil yana etimxona ochib, 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan 80 bolani tarbiyalay boshlaydi. Lekin bu ham tezda yopiladi.

Olim bolalarga boshlang'ich ta'lim berishning oqilona metodini ishlab chiqadi. Elementar ta'lim nazariyasini yaratadi. Bu jismoniy mehnat, axloqiy, estetik, aqliy tarbiya va o'qitishni o'z ichiga oladi. Axloq tarbiyasida oila va onaning o'rnini ko'rsatadi.

Robert Ouen (1771-1838) hunarmand oilasida tug'iladi. Yoshlikdan mehnat qiladi. 20 yoshida korxona egasi bo'ladi. Ishchilarni ahvolini yaxshilash choralari ko'radi. 1-6 yoshlilar uchun yasli, bog'cha, maydonchalar ochadi, 6-10 yoshlilar uchun boshlang'ich maktab, kattalarga kechki maktab ochadi.

Maktabda ona tili, arifmetika, geografiya, tabiat, tarix, ashula, raqs o'rgatilardi. Ko'rsatmalilik keng qo'llanilgan. U tarixda 1-maktabgacha muassasa va ishchilar uchun kechki maktab ochdi.

1825 yil Amerikada "Yangi Garmoniya"- koloniyasini tuzadi. Hamma ishlaydi, bir xil kiyinib, eb ichishadi, o'qitish mehnat bilan qo'shib boriladi, lekin muvoffaqiyatsizlikka uchraydi.

Adolf Disterveg (1790-1866) amaldor oilasida tug'iladi. Gerborn, Tyubingen universitetlarida o'qiydi. Reyn, Berlin o'qituvchilar seminariyasiga boshchilik qiladi. O'zi pedagogika, nemis tili, matematikadan dars beradi. "Nemis o'qituvchilrini o'qitish uchun qo'llanma", "Elementar geometriya" va boshqa darsliklar yozadi.

Disterveg "Nemis o'qituvchilarining muallimi" degan faxrli nomga sazovor bo'ladi. U umuminsoniy tarbiya g'oyasini himoya qiladi. Ongli inson, insonparvar shaxs tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi. "Inson- mening nomim, nemis- mening laqabim", deydi u.

Shu bilan birga bola tarbiyasida o'qituvchi o'rni muhimligini ko'rsatadi.

Konstantin Dmitrievich Ushinskiy (1824-1870) rus xalq pedagogikasining asoschisi. Tula shahrida dvoryan oilasida tug'iladi. Moskva universitetining yuridik fakultetida o'qiydi. 1846 yili Yaroslav yuridik litseyida ishlaydi, 1855 yildan Gatchina etimlar institutida, 1859 yildan Smolnii aslzoda qizlar institutida inspektor bo'lib ishlaydi. Bu erlarda ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshi yo'lga quyadi, yangi fanlar, metodlar kiritadi.

"Pedagogik adabiyotning foydasi to'g'risida", "Maktabning uch elementi", "Ijtimoiy tarbiyada xalq ruxi" maqolalarini, 1861 yil "Detskiy mir" xrestomatiyasini, "Ona tili", "Mehnatning psixologik va tarbiyaviy ahamiyati" kitoblarini yozadi.

50

651 - 715 yillar davomida arablar Movarounnahrni egalladilar. Ular bosib olingan xalqlarni islom diniga kirita boshladilar. Arab tili ham yangi madaniyat tili bo'lib maydonga chiqdi. Arablar yunon fanini yutuqlaridan foydalandilar, faylasuflar asarlarini tarjima qildilar. Astronomiya, tibbiyot, kimyoga oid yirik asarlar arabchaga ugrildi.

Arablar fanni tasnif etishni yunonlardan olib, fanlarni 2 nazariy va amaliy qismlarga ajratdilar. Birinchi qism - uch bulim tabiat, ilohiyot, matematika to'g'risidagi fanlar edi. Ikkinchi qism esa etika, iqtisod va siyosatga bo'lingan. Hind fani arab madaniyatiga asosan arifmetika, algebra, tibbiyotga ta'sir etgan. Evropaliklar ham sonlarni hind nazariyasi bilan arablar orqali tanishganlar.

Arablar ulkan davlat barpo etib, geografiya rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. IX asrlarda arab mulklari xaritalari tuzilgan edi.

Arablar bosib olingan joylarida islom dini bilan birga bu dinning muqaddas kitobi Qur'onning tili - arab tilini ham joriy etishdi.

Islom dinining asoschisi va targ'ibotchisi Muhammad ibn Abdullox 570 yilda Makkada Kuraysh qabilasiga mansub Xoshimiylar xonadonida tug'iladi.

Payg'ambarimizga nozil bo'lgan Qur'on oyatlari ham ular vafotidan keyin xalifalar tomonidan 23 yil davomida yod olinib va yozilib boriladi.

"Qur'on" musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida "Qiroat" ma'nosini anglatadi. "Qur'on 114 sura, 6236 oyatdan iborat. U kishilarni tenglik, birodarlik, tinch - totuv yashash, ezgulikka undaydi. Katta axloqiy qimmatga ega bo'lib, insonni ma'naviy kamolga etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Oллоh qalbimizda va yuragimizda" risolasini yozdi, u ko'p tillarga tarjima qilindi. Islom dini g'oyalarini ta'lim - tarbiya jarayoniga tadbiiq etishga imkoniyat yaratildi.

Qur'onda inson kamolotining muhim belgisi sifatida ilmlilik ta'riflanadi. Islom musulmonlarni ilm olishga undaydi. Ko'plab oyatlarda ilm va ilmlilik ulug'lanadi. Aql insonga berilgan buyuk ne'mat deb ta'riflanadi.

Qur'onda axloq va axloqlilik haqila muhim fikrlar uchraydi. Yaxshi xulqlar insoniy fazilatlar deb ko'rsatiladi. Islom dinining maqsadi yomonlikning oldini olish va kishilarni to'g'ri yo'lga boshlashdan iborat.

Qur'onda saxovat, mehmondo'stlik, jasorat, sabr, qanoat, to'g'rilik, sodiqlikka katta e'tibor berilgan. Islom nafaqat ota - onaga, balki qarindoshlar, etimlar, kambag'allar, qo'shnilar umuman butun insoniyatga yaxshilikni ulug'laydi. Sadoqat, olijanoblik, shirinsuxanlik odoblari ko'rsatiladi.

Unda axloqiy kamolotga to'sqinlik qiluvchi xususiyatlar qoralandi. Umuman olganda Qur'oni karim insonni akliy, axloqiy, jismoniy shakllantirishda, bir so'z bilan aytganda komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.

Hadis (arabcha - rivoyat, naql, axborot etkazish ma'nolari) - islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba, Muhammad payg'ambarning faoliyati va ko'rsatmalari haqida rivoyatlar majmui. Muhammad payg'ambar biror gapni aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yoxud boshqalarning o'zlariga qilayotgan biror ishni ko'rib uni man etmagan bo'lsa, shu uch holatning har biri sunnat hisoblanadi. Shular haqida rivoyatlar hadis deb ataladi.

Hadis ilmi bilan shug'ullanish asosan VIII asrning 2-yarmidan boshlangan. Dastlab hadislar yozilmay yod olingan, lekin uni yod bilganlar kamayib borgach, ularni yozishga zarurat tug'ilgan. Bu ishlarni boshida xalifa Umar turgan.

VIII - IX asrlar hadis ilmi uchun "oltin davr" hisoblanadi. Hadislar o'rganilib, tahlil etilib, ishonchlilari yig'ila boshlanadi. Eng nufuzli 6 ta ishonchli to'plamni yaratgan muxaddislar bizning vatandoshlarimizdir. Bular al-Buxoriy, al-Xajjok, at-Termiziy, sulaymon Sijistoni, an-Naso'iy, ibn Mojjalardir. Bular yaratgan 6 ta kitob "Sunnan" va "As Saxix" nomli to'plamlar bo'lib, ular ishonchli to'plamlar sifatida tan olingan.

Hadis ta'lif etishda asosan uch yo'nalish paydo bo'lgan:

1. Musnad yo'nalish, turli mavzudagi hadislar alifbo tarzida joylashtirilgan (Abdullox ibn Muso, Imom Ahmad ibn Xanbal).

2. Saxix (ishonchli) - yo'nalish to'g'ri, ishonchli hadislar kiritilgan. Bunga Imom al-Buxoriy asos solgan.

3. Sunnan yo'nalishi to'g'ri hadislar bilan birga "zaif" hadislar ham kiritilgan (Abu Dovud, at-Termiziy, an-Naso'iy, ibn Mojjalar shu yo'nalishda hadis to'plaganlar)

Hadis ilmi rivojida al-Buxoriy va Imom at-Termiziylarning o'rni nihoyatda kattadir.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) hadis ilmidagi "Amir ul-mu'minin", "Imom al-muxaddisiyn" degan sharaflil nomga sazovor bo'lgan.

Balx, Basra, Bog'dod, Damask, Misr, Makka va Madina shaharlaridagi hadischilardan ta'lim oladi. 6 yil Xijozda qolib hadis ilmidan ta'lim oladi, mashhur olimlardan fiqh ilmini o'rganadi, o'zi ham talabalarga dars beradi.

Al-Buxoriyning zehni juda o'tkir bo'lgan. Uning yozishicha 100 ming saxix va 200 ming g'ayri saxix hadisni yod bilgan. U 1080 ta muhaddisdan hadis eshitgan, undan esa 90 ming kishi ishonarli hadislarni eshitgan.

Buxoriydan boy ilmiy va ijodiy meros qolgan. Uning "Al-Jome' as-saxix", "Al adab al-mufrad", "At Tarix al-Kabir", "At Tarix as-sagiyr", "Al-Kiroat xalfal Imom, "O'rta tarix", "Katta to'plam",

"Hadya kitobi" nomli asarlar qolgan. Bulardan "Al-Jome' as-saxix" eng mashhur bo'lib, unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng saxih hadislar kiritilgan.

Mashhur muxaddislardan yana biri Abu Iso at - Termiziy (824-892) yoshligidan hadis ilmiga qiziqadi. U 850 yildan sayohatga chiqib, Makka, Madina, Iroq, Xurosonda buladi, ilmi hadis, fikr, qiroat, tarixni o'rganadi. Ko'plab hadislar to'playdi, al-Buxoriyga shogird bo'ladi. Uning mashhur asarlaridan: "Al-Jome' as-saxix" (Sunnan), "Ash - Shamoil an-Nabaviya" (Payg'ambarlarning alohida fazilatlar), "VI-ilal fi-l-xadiys" (Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida).

Hadislarda ta'lim - tarbiya, odob - axloq haqidagi fikrlar juda ko'plab uchraydi. Arablar bosib olganidan keyin Movarounnahrda ham arablardagi kabi machitlar barpo etildi, machitlar huzurida esa maktablar ochildi. Bu maktablarda o'g'il bolalarga Qur'oni karimni o'qishni o'rgatishga farmon berildi. Machit imomi bolalarni o'qitardi. maktablarda arab tili muhim fan sifatida o'qitilgan.

12

U bolalarning tabiiy qobiliyatiga yuksak baho beradi. Uning fikricha befahm, qobiliyatsizlar kamdan-kam uchraydi. Bola maktabda tarbiyalanmog'i lozim. O'qituvchi bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bekorga jazolab va mukofotlayvermasligi, o'zi bolalarga namuna bo'lishi kerak.

Buyuk slavyan pedagogi, "Chex qardoshlari" jamoasining rahbarlaridan biri Yan Amos Komenskiy (1592-1670) Janubiy Moraviyada tug'iladi. Germaniyadagi Gernborg, Geydelberg universitetlarida o'qiydi. U vataniga xizmat qilishni butun insoniyatga xizmat qilish bilan birga qo'shib olib borishga harakat qildi, xalqaro hamkorlikni talab qildi.

Tengsizlik hukm surayotgan bir davrda barcha bolalarni bir xilda, teng holda ona tilidagi maktablarda o'qishlari lozim deb hisoblaydi. Insonni ulug'laydi. Maktabni "insonparvarlik ustaxonasi" deb hisoblaydi. Aholining kambag'al qismi, xalq ommasi uchun tarbiya

tizimini ishlab chiqadi. Umumiy boshlang'ich ta'lim g'oyasini olg'a suradi.

Komenskiy fikricha tarbiyaning 3 bosqichi bor: o'zini va tevarak atrofdagi olamni bilish (aqliiy tarbiya); o'z-o'zini boshqarish (axloqiy tarbiya); xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Tarbiya rolini yuksak baholadi. Har qanday bolani odam qilish mumkin deb hisoblaydi.

U inson tabiatiga asoslanib, bolani yoshini har qaysisi 6 yoshdan bo'lgan 4 davrga bo'ladi:

1. Go'daklik davri- tug'ilgandan to 6 yoshgacha bo'lgan davr. 2. Bolalik davri- 6-12 yosh; 3. O'smirlik davri- 12-18 yosh; 4. Etuklik davri (balog'at)- 18-24 yosh.

U yosh davrlariga tafsif beradi. ?ar bir davr uchun o'qitish mazmunini belgilab beradi.

Komenskiy ta'limining ko'rsatmalilik printsipini nazariy asoslab beradi. Didaktikaning "oltin qoidasi"ni bayon etadi. Ma'nosini tushunmay og'zaki yodlashga onglilik printsipini qarama-qarshi qo'yadi. Ta'limning sistemalilik va izchillik printsipiga alohida e'tibor beradi. O'qitishda konkretan abstraktga, osondan qiyinga, umumiydan juz'iyga borish kerakligiga to'xtaladi. Ta'limning bola yoshiga mos bo'lishi qoidasini ham ilgari suradi.

U maktabga o'quv yili, uni choraklarga bo'lishni, kanikulni kiritadi, o'quv mashg'ulotlarining sinf-dars tizimini nazariy ishlab chiqdi va amalda qo'lladi.

"Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" (1631), "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" (1658) darsliklarini yozadi. 1632 y "Buyuk didaktika", "Onalar maktabi" asarlarini yozadi.

Axloqiy tarbiyaga katta ahamiyat beradi. Donishmandlik, mu'tadillik, mardlik, odillik, kamtarlik, pokizalik, mehnatsevarlikni tarbiyalashni tavsiya etadi. Axloqiy tarbiya vositalarini ko'rsatadi. Intizomga katta ahamiyat beradi. Tan jazosini butunlay qoralaydi.

Komenskiy o'qituvchilikni "er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan", juda faxrli kasb deb biladi. Shu bilan birga o'qituvchilarga talablar qo'yadi.

Maktablar xususiy bo'lib, pul to'lanardi. Pulsiz erkin aholi ham o'qiy olmasdi. Bu maktablarda "didaskal" (men o'qitaman) o'qituvchilar mashg'ulot olib borardi. O'g'il bolani maktabga etaklab boruvchi qulni "pedagog" deb atashgan. Maktablarda o'qish, yozish, hisoblash o'rgatilgan. Kifaristda adabiy bilim, estetik mazmundagi materiallar o'rgatilgan.

13-14 yoshdan 2-3 yil "palestra" (kurash) maktabida tarbiyalangan. Palestrada o'qish tekin bo'lgan. Bularda ham axloqiy, siyosiy suhbatlar o'tkazilib turilgan.

Badavlat oila bolalari undan sung "gimnasiy"da o'qigan. Ularda falsafa, siyosat, adabiyot o'rgatilgan, ular davlat boshqaruvida qatnashganlar. 18-20 yoshda efeb safida xizmat qilganlar.

Yunonistonda tarbiya nazariyasi ham yaratildi. Unga faylasuf olimlar Sokrat, Platon, Arastu, Demokritlar asos soldilar.

Sokrat (er.av. 469-399) ning fikricha tarbiyadan qutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olishi, axloqni kamol toptirish bo'lmog'i lozim. Sokrat notiq, faylasuf sifatida ko'p ma'ruzalar bilan chiqadi. Shularda u tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni o'zlari topishlariga undar edi. Bu "Sokrat usuli" yoki "fikir qo'zg'ovchi savollar usuli" deb nom oldi.

Platon (er.av. 424-347) Sokratning shogirdi. Uning nazariyasicha ideal aristokratik davlat uch gurux: faylasuflar, jangchilar, dehqon va hunarmandlardan iborat bo'ladi. Faylasuflar boshqaradi, jangchilar himoya qiladi, dehqonlar ularni boqadi. Bunday jamiyatga tarbiya orqali erishiladi, deydi. Uning fikricha tarbiya davlat tomonidan tashkil etilishi va hukmron sinflar manfaatini ko'zlamog'i kerak. U o'z pedagogik tizimida Sparta va Afinaning tizimidagi ba'zi belgilarni birlashtirishga intiladi.

Arastu (er.av. 384-322) pedagogika nazariyasi rivojiga katta hissa qo'shgan. Uningcha olamda tana va jon bor. Uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanish va ko'payishda namoyon

bo'ladi; hayvonlardan tarkib topgan jon, o'simlik xossalaridan tashqari, sezgi, istaklarda namoyon bo'ladi; aql ifodasi bo'lgan jon tafakkur yoki bilish hislatlariga ega. Shu 3 jonga muvofiq 3 tarbiya: jismoniy, aqliy tarbiya bo'lishi kerak. Tarbiyaning maqsadi, uning fikricha jonning oliy tamonlari- aql va irodani kamol toptirishdan iboratdir.

Pedagogika tarixida 1-marta yosh davrlariga bo'ladi. U yoshlikni 3 davrga:

7 yoshgacha, 7 yoshdan 14 yoshgacha, 14 yoshdan 21 yoshgacha.

Qadimgi Rimda boshlang'ich va grammatika maktablari bor edi. Erkin aholi bolalari ham qisman xususiy maktablarda o'qiy olardi. Bularda o'qish, yozish, hisob o'rgatilgan. Boy bolalar uyda ham o'qitilgan.

Grammatika maktablarida imtiyozli oila bolalari lotin tili, grek tili, ritorika (notiqlik)ni o'rganganlar.

Alohida ritorlar maktabi ham bo'lib, bularda aslzoda bolalar pul tulab ritorika, falsafa, huquqshunoslik, grek tili, matematika, musiqa o'rganar edilar.

Mashhur Rim pedagoglaridan biri Mark Fabiy Kvintilian (42-118) edi. Uning "Notiq tarbiyalash to'g'risida" asaridan parchalar bizgacha etib kelgan u grek rim falsafasi, pedagogikasini yaxshi bilgan. Ritorlar maktabida o'qituvchilik qiladi. Asarni esa o'z pedagogik tajribasi bilan bog'lab yaratadi.

48

Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston hududida ham VIII-IX asrlardan boshlab maktab va madrasalar paydo bo'la borgan. Bu erda beriladigan ta'limning manbai Qur'on asoslari, hadislar va ulamolarning kitoblari hisoblangan. Ta'lim va tarbiyada haqiqiy insoniy hislatlar targ'ib qilingan. Farzandlarning halol, pok, mehnatsevar, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalashga e'tibor berilgan, shu bilan birga dunyoviy bilimlar, hisob, adabiyot, tarix, geografiy ilmlari ham urgatilgan. Uyg'onish davri IX asrdan boshlab XV - XVI asrlargacha ayrim uzilishlar bilan davom etdi.

Xalifa Xorun ar-Rashid (786-833) va uning o'g'li Ma'mun davrida Bog'dodda "Baytul xikma" (Donishmandlik uyi) tashkil etildi. Bu ilm sohiblarini to'plagan markazga aylandi.

X asrdan boshlab Movaraunnahr va Xurosondagi mustaqil feodal davlatlar - Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Faznaviylar, saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi ham madaniy hayotning rivojiga olib keldi.

Somoniylar davrida Rudakiy, Firdavsiy, al-Xorazmiy, al-Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar yashab ijod etdi. X asrning 2-yarmida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ilm - fan rivojlanib, turkiy til shakllanib bordi. Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariylar dunyoga mashhur asarlar yaratdilar.

XI asrda Xorazmshohlar davlati tashkil topib, ilm - fan yuksldi. Xorazm shohi Ma'mun o'z saroyiga yirik olimlarni yig'di. U tashkil etgan Baytul hikmada qomusiy olimlar Beruniy, Ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyozatchi Irok kabilar ilm bilan shug'ullangan.

Saljuqiylarda Alp Arslon Muhammad hokimiyati boshqargan davrda uning vaziri Nizom ul Mulk mashhur ma'rifatparvar sifatida dovrug' qozondi. U davlat boshqaruviga oid "Siyosatnoma" asarini yozadi (1091-1092). 1067 yilda Bog'dodda "Nizomiya" madrasasini qurdiradi. 1074 yil O'rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar taqvim yaratdi.

Sharq uyg'onish davrida ilm - fan rivojlanishi 3 yo'nalishda bo'ldi:

1. Matematika tibbiyot yo'nalishi (Xorazmiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Jurjoniylar asarlar yaratganlar).

2. Ijtimoiy - falsafiy yo'nalish, bunga falsafa, tarix, mantiq, ruhshunoslik, notiqlik fanlari kirgan (Forobiy, Ibn Sino, Narshaxiy).

3. Ta'limiy - axloqiy yo'nalish. Bunda adib va tarbiyashunos olimlar ta'limiy - didaktik asarlari misol bo'ladi.

Sharq uyg'onish davrining mashhur allomalaridan biri Ahmad al-Farg'oniy bo'lib (IX asr), u Bog'doddagi Baytul Xikmada mudarrislik qildi, riyozat, falakkiyot, geografiyaga oid asarlar yaratdi. Uning mashhur "Samoviy harakatlar va yulduzlar fani-ning majmuasi haqida kitob"i arab tilida yozilgan dastlabki falakkiyotga oid asar bo'lgan,

yana "Astrolyabiy haqida mukammal kitob", "Oy er ustida yoki uning ostida bo'lgan paytlardagi vaqtlarni o'rganish haqida", "Etti iqlim hisoboti" kabi asarlar yaratgan.

Buyuk olim, aljabr fanining otasi Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiy (783-650) Xorazmning Zamaxshar shahrida tug'ilgan. U "Al-jabr la al mukobala" (Tenglamalar va qarshilantirish), "Xisob al kind" (Hind hisobi), "Kitob surat al-arz" (Er surati haqida kitob), "Kitob at-tarix", "Ustrurolab yulduzlarining harakatini kuzatish" nomli asarlar yaratgan.

13

Xorazmiy "Al-jabr va al muqobala" asari bilan matematika faniga asos soldi. Yana "falakkiyot jadvallari", "Quyosh soatlari to'g'risida" risolalar ham yozgan. U hind hisoblari, ularning ishlatilishi, sonlarni ko'paytirish, bo'lish, qo'shish va ayirishni oson yo'llarini ko'rsatdi.

Olimning arifmetikasi matematika va sanoq tartibi tarixida yangi bir davr ochdi.

Abu Nosr Forobiy (879-950) mashhur faylasuf va allomadir. Uning falsafa, mantiq, psixologiya, musiqa, matematika va boshqalarga oid 160 dan ortiq asarlari ma'lum. U "Al-muallim as-saniy" (ikkinchi muallim), "Sharq Arastusi" nomlariga sazovor bo'lgan. Uning axloq, tarbiya, sha'riyatga oid asarlari ham bor. "Kattalarning aqli haqida", "Ilmning kelib chiqishi va tasnifi", "She'r va qofiyalar haqida", "Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida", "Fazilatli xulqlar" kabi asarlari mavjud.

Forobiy o'z falsafiy qarashlarida insonga bilim va tarbiya berishni asoslagan. U kishilarni guruhlariga bo'lgan va bunda ularning diniy mazxabga emas, balki avvalo, akliy iqtidoriga, ilm o'rganish va hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga ahamiyat beradi.

Olimning falsafada insonparvarlik g'oyalari alohida o'rin olgan, har qanday zulm va urushlarni qoralagan. Forobiy muallimlik qilgan. U o'qitishning mazmuni va qonun - qoidalarini amaliy faoliyatida sinab ko'rgan. U fanlarni tasnifini beradi.

Forobiyning axloqiy qarashlari ham g'oyat qimmatlidir. U "Fozil shahar aholisining axloqiy qarashlari", "Ruh madaniyati haqida risola" asarlarida inson barkamol bo'lishi uchun avvalo axloqli bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Forobiy axloqni 2 guruhga: ezgulik va yomon sifatlarga ajratadi. Insonning eng olijanob fazilati baxtga intilishdir. Haqiqiy baxtga erishish kishilardan yuksak axloqiy munosabatni, hamkorlik, o'zaro yordam va ahil yashashni talab qiladi.

Xalqimizning ta'lim - tarbiyaga oid qarashlari ulug' olim, mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy (XI asr)ning "Devonu lug'atit turk" asarida keng bayon etilgan.

Asar 1076-1077 yillarda yozilgan va yoshlarga nasihatlar tarzida tuzilgan she'riy parchalardan iboratdir. Devondagi qo'shiqlarda tabiat, ov va jang manzaralari, sevgi - muhabbat va ugit - nasihatlar uz ifodasini topgan.

She'rlarda ilm olishning qadri, bilimli kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik va jasurlikni targ'ib qiluvchi, baxil, ochko'z, do'stga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi.

Pand - nasihatlarda asosiy o'rin ilm olishga undashga, uning foydasini targ'ib etishga qaratilgan. Ko'plab tarbiyaviy xarakterdagi maqollar ham berilgan.

Abulqosim Maxmud ibn Umar Zamaxshariy (1074-1144) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'iladi. U yirik olim, adabiyotshunos, shoir va yozuvchidir. U Urganchda so'ngra Buxoroda o'qiydi. Bog'dod, Makka va ko'plab shaharlarda sayohatda bo'ladi. Uning asarlaridan "Al-Kashshof" (Oshkor qiluvchi), "Chechanlik poydevori", "Xadisdagi notanish so'zlarni o'zlashtiruvchi" (lug'at), "Tog', manzil va suvlar", "Dori - darmon va tog'lar ismlari kitobi", "Adabiyot muqaddimasi", "Hikmatli so'zlar", "Ugit va nasihatlarining oltin munchoqlari", "Saxiy yoz" kabilardir.

32-MAVZU. JAHON PEDAGOGIKA FANI RIVOJLANISHI TARIXINING OBZORI

R E J A:

1. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.
2. Ya.A.Komenskiyning pedagogika fani rivojiga qo'shgan hissasi.
3. I.G.Pestolotstsi, R.Ouen, A.Disterveglarning pedagogik g'oyalari.
4. K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy va A.S.Makarenkolarning pedagogik faoliyatlari va qarashlari.

Bizning bo'lg'usi pedagoglarimiz-tarbiyachi va o'qituvchilarimiz faqat o'zbek va O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixini o'rganib qolmasdan, balki jahon xalqlari tarixidagi ilg'or pedagogik qarashlarni, yirik pedagoglar va ularning g'oyalarini ham bilishlari lozim. Bu ularning pedagogik mahoratlari yanada oshishiga yordam beradi. Shu bilan birga "Ta'lim to'g'risida"gi qonunimiz va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" ham milliy qadriyatlarimiz bilan birga umuminsoniy qadriyatlarni ham o'rganish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish talab etiladi. Shu maqsadda biz jahon xalqlarida pedagogika fani rivojlanishiga qisqacha obzor berib o'tsak.

Jahon pedagogika fani yuzaga kelishi va rivojlanishi haqida gapirganda qadimgi Yunoniston va Rimdagi ta'lim-tarbiya, pedagogik fikrlarga to'xtalib o'tish lozim. Chunki bularda madaniyat, tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan erta rivojlangan.

Qadimgi Yunoniston (Gretsiya) uncha katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan iborat mamlakat bo'lgan. Lakoniya (bosh shahri Sparta) va Attika (Afina) eng katta davlatlardan edi. Bularda alohida tarbiya tizimi vujudga kelib, Sparta va Afina tarbiya usuli deb ataldi. Ularning ikkalasi ham quldorlik davlati edi va ularda tarbiya tizimlari quldorlar uchun edi.

Spartada tarbiya ishlari davlat qo'lida edi. Bolalarni baquvvat, chiniqqan jangchilar, bulajak quldorlar qilib tarbiyalash vazifasi qo'yilgan edi. Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashab, 7 yoshdan "agella" tarbiya muassasiga joylashtirilgan. 18 yoshgacha shu erda tarbiyalangan. Bu muassasalarga taniqli, obro'li "pedanom" rahbarlik qilgan.

O'quvchilar jismoniy chiniqtirilgan, musiqa, ashula, diniy raqslar o'rgatilgan.

Davlat rahbarlari yoshlarga axloqiy va siyosiy tarbiya berardilar. Bolalar aniq va qisqa javob berishga o'rgatilar edi. 18-20 yoshda efeblar safida harbiy xizmat o'tardilar. Qizlarga ham harbiy-jismoniy tarbiya berilardi.

Afinada eng barkamol kishi deb, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan kurkli kishini hisoblaganlar. Aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyani birga qo'shib olib borishga intildilar. 7 yoshgacha bolalar uyda tarbiyalanardilar. O'g'il bolalar 7 yoshdan maktabga qatnar, qizlar oilada tarbiyalanib, uy ishlari bilan shug'ullanardilar. 7-14 yoshda grammastist (savod o'qituvchisi) va kifarist (musiqa o'qituvchisi) maktablarida o'qirdilar.

47

2-bobda dasturning maqsad, vazifalari va uni ruyobga chiqarish bosqichlari ko'rsatib beriladi. "Mazkur dasturning maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar doirasida, yuksak axloqiy va ma'naviy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir", deyiladi dasturda.

Dasturni ruyobga chiqarishning bosqichlari (1. 1997-2001, 2. 2001-2005, 3. 2005 va undan keyin), ularda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berilgan.

3-bobda Kadrlar tayyorlashning milliy modeli (shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish) tahlil etib beriladi.

4-bobda kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning 15 ta asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

5-bob esa dasturni ruyobga chiqarishga doir chora-tadbirlarni belgilashga qaratilgan.

Ta'lim to'g'risidagi Qonun va milliy dasturni amalga oshirish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Tajriba- sinovlar o'tkazilmoqda. Ta'limning davlat standartlari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Yangi o'quv dastur, darsliklar yaratilmoqda. Ayniqsa, akademik litsey va kollejlarga katta e'tibor berilmoqda. O'quv yurtlarimizda milliy o'zligimizni anglashga olib keladigan masalalarni o'rgatishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Oliy ta'limda ham milliy dastur talablari asosida ishlar olib borilmoqda. Bakalavrlik va magistrlik bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Test asosida o'qitishga e'tibor kuchaymoqda. Biz o'ylaymizki, milliy dasturning amalga oshib borishi bilan jahon standartlariga javob bera oladigan ta'lim-tarbiya tizimimizga erisha olamiz.

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQ

Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaliyotga tatbiq etilishi va ularning ahamiyati mavzusida referat tayyorlash.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

I.A.Karimovning qaysi asarlarida ta'lim islohati va barkamol inson tarbiyasi haqidagi g'oyalari o'z aksini topgan?

Milliy o'zbek maktabi haqidagi sizning qarashlaringiz.

Qonun va dasturning qabul qilinishining zarurati.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirish bosqichlari va ularda belgilangan vazifalar qanday?

Zamaxshariyning "Al Kashshof" kitobi hozirda ham arab mamlakatlari diniy dorilfununlarida muhim qo'llanma sifatida ishlatilmoqda. Uning "Atvoq uz - zaxab fi-l mavoi'z va-l-xutab" (Ugit va nasihatlarining olting munchoqlari) asari tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Unda tarbiyaviy xarakterdagi 100 ta maqola berilgan.

Tasavvuf - sufiylik ta'limoti islom dini negizida datlab VII-VIII asrlarda arab davlatlarida paydo bo'ldi. XI asrlarda esa Movarunnahr (O'rta Osiyo), musulmon davlatlari xalqlari hayotida keng yoyildi. Unda falsafiy - axloqiy, ijtimoiy -siyosiy qarashlar va g'oyalar mujassamlashgan.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, dunyo butun olam xudoning mujassamlanishi. Xudo barcha narsalarda mavjud, narsalar esa xudoda mavjud.Inson ham bir kuni xudo bilan qo'shiladi. Sufiylik ta'limotining nazariy jihati olloh ishqi uchun fidoyilik bo'lsa, amaliyot esa unga sadoqatlilikdir.

Sufiylik turli ko'rinish va oqimlarda namoyon bo'ladi. O'rta osiyoda tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi yirik mutafakkir, "shayxlar shayxi" Yusuf Xamadoniy (1048-1140) nomi bilan bog'liq. Uning ta'limoticha kishi butun fikrini Olloh visoliga etishishga bag'ishlashi, bu yo'lda halollik bilan kun kechirishi, mehnat qilishi, har tomonlama kamolga etishi kerak, shular ahli tasavvuf bo'ladi. O'zi ham Olloh vasliga etishishga harakat qiladi, o'z kamolotini oshirib boradi, kuplab shogirdlar etishtiradi.

Sufiylikning birinchi oqimiga Mansur Xalloy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiylar ham mansub bo'lib, ularning ta'limoticha, xudo har jihatdan komildir, eng oliy go'zallik, shodlik, baxt uning vaslidir, foni bo'lishdir. Sufiylar poklikni asosiy maqsad qilib qo'yadilar.

Sufiylar komillikka erishishning 4 bosqichi bor deyilar:

1-bosqich - shariat: diniy marosim, takvolarni izchil bajarish.

2-bosqich - tariqat: nafsni tiyish, xilvat, ma'naviy muhabbatni chuqurlashtirib xudo haqida o'ylash, fano, o'zdan kechish.

3-bosqich - ma'rifat: hamma narsaning, borliqning asosi - xudo ekanini, o'z mohiyati xudo mohiyati bilan birligini bilish, anglash.

4-bosqich - haqiqat: sufiy xudoning dargohiga, vasliga etadi.

Sufiylik ikkinchi oqimining yirik vakillaridan Imom Fazzoliy va Ahmad Yassaviydir. Imom Fazzoliy (1058-1112) "Xujjatul islom" laqabini olgan. U "Faylasuflarni rad etish", "Saodat kimyosi", "Diniy ilmlarni tiriltirish" kabi ilohiyotga oid asarlar yozgan.

Fazzoliy inson kamolga etishi, ya'ni xudo vasliga etishi uchun ma'lum shartlarni bajarib, muayyan yo'lni bosib o'tishi kerak, deydi. Bularni u har bir sufiy islom talablari - qonun - qoidalari, aqidalarini, Qur'onni haqiqat deb bilib, unga tobe bo'lishi va ularni so'zsiz bajarishda deb biladi.

Ahmad Yassaviy (1041-1166) tasavvuf shoiri, din va shariat peshvosi. U sufiylik g'oyalarini targ'ib etishda she'rlardan foydalanadi. Yassaviy hikmatlarini axloqiy, falsafiy, ilohiy ildizlari to'g'ridan - to'g'ri Qur'on g'oyalari va payg'ambarlarimiz hadislariga borib bog'lanadi.

Yassaviy "Devoni hikmat" asarida insonni komillikka eltadigan din, imyon, xudo yo'lida fidoyilik, e'tiqodda sobitlik, halollik va poklik targ'ib etiladi. Yassaviy hikmatlarida to'g'rilik, mehnatsevarlik, mehribonlik, insof g'oyalari ilgari suriladi.

15

Ayrim hikmatlarda ijtimoiy adolatsizlikka qarshi fikrlarni ko'rish mumkin. U nodonlik, jaholatni qattiq qorlab yozadi:

Duo qiling, nodonlarning yuzin ko'rmay,

Haq taola rafiq bulsa, birdam turmay.

Bemor bo'lsa, nodonlarni holin surmay,

Nodonlardan yuz ming jafo ko'rdim mano,

Ae do'stlar nodon birla ulfat bo'lub,

Bag'rim kuyub, g'amdin tuyub, o'ldim mano.

Adib komillikka erishishning yo'li har qanday nafsdan ham parhez qilishda ekanligini ta'kidlab, nafs yo'lga kirmaslikni maslahat beradi. Shu bilan birga har qanday maqsadga erishish yo'lida mehnat qilish lozimligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Yassaviyning imyon - e'tiqodga chaqiruvchi g'oyalari yoshlar tarbiyasida muhim manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Najmiddin Kubro (1145-1188) Xorazmda tug'iladi. "Najmiddin", "Kubro" (ulug', etuk), "Valiytarosh" unvonlariga ega bo'ladi. Ko'p joylarda bo'lib shariat ilmlarini urganadi. "Kubroviiy" tariqatiga asos soladi, bu hadis va shariatga asoslangan bulib, ko'p musulmon davlatlariga yoyiladi. Kubro murid tarbiyalashda o'ziga xos usullarni ishlab chiqadi. "Tariqatlari risolasi", "O'nta usul" kitoblarida sufiylar tarbiyalashning o'nta talabini ko'rsatadi: Tavba, Zuxd, Tavakkul, Qanoat, Uzlat, Zikr, Tavakkux, Sabr, Murakaba, Rizo.

Kubroning yana bir xizmati -jovonmardlik g'oyalarini tariqatga joriy etishbuladi.

Baxovuddin Naqshband (1318-1369) "Xojogon" ("Naqshbandi") tariqatini XIV asrda asoslab butun olamga yoydi. "Xojogon" tariqatini VII asrda Abuxoliq Fijduvoni yaratgan edi. Naqshbandiy uning ishini davom ettirdi.

Naqshbandiy suluki Islomdagi sunniylikka asoslanadi, uning boshqalardan farqli, uziga xos tomonlari bor.

Avvalo, Naqshbandiya suluki halol mehnat bilan kun kechirishni targ'ib qiladi. Uning "Dil ba eru dast ba kor" shiori buning isbotidir. Ikkinchi farq, boshqa sulukdagilar pir oldiga yig'ilib, ovoz chiqarib zikr tushsalar, bular "zikri xufiya" bilan shug'ullanganlar. Uchinchisi, bular bemordan kasallikni uzlariga tortib, so'ng bu kasallikni chiqarib tashlaganlar To'rtinchisi, bular karomatfurushlikka yo'l qo'yishmagan. Bid'atga qarshi bo'lganlar.

Naqshbandiya tariqati asosida insonning pok bo'lishi, mehnat bilan yashashi, sabrli, kamtar, samimiy bo'lishi, imyon mustahkam, dilda xudoni jo etgan, xalq bilan birga bo'lish kabi hislatlarni tarkib toptirish yotadi.

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Qur'oni Karimdan ta'lim - tarbiyaviy xarakterdagi oyatlarni o'qib, tahlil etish

Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ibn Sinoning "Tadbiri manozil" asarlarini o'qib, qisqacha konspekt yozish.

Yusuf hos Xojibning "Qutadg'u bilig" va Kaykavusning "Qobusnoma" asarlari asosida referatlar tayyorlash.

16

"Avvalo shuni ta'kidlashimiz kerakki, biz eski, sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan hali beri to'liq qutilganimiz yo'q.

Ikkinchidan, barcha amaldagi o'zgarishlar... uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini echib bergan emas.

Uchinchidan, bizning amaldagi ta'lim-tarbiya tizimimizbugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko'p joylarda yaqqol ko'rinmoqda.

Yurtboshimiz maktab moddiy bazasi nochorligi, tarbiyachilarning o'zi zamonaviy bilimga ega emasligi, 11 yillik ta'limning ilmiy asoslanmaganligi, boshlang'ich ta'limga past nazar bilan qarab kelinganligi, darsliklarning talabga javob bermayotganligi, o'quvchilar mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatilmayotganligi kabi ta'lim-tarbiyamizdagi kamchiliklarni ko'rsatib o'tdi.

Shu sessiyada "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun qabul qilindi.

Bu qonun 5 bob, 34 modddadan iborat. Qonunning 1 bobi "Umumiy qoidalar" deb nomlanadi, uning 1 -moddasida qonunning maqsadi ko'rsatiladi: "Ushbu Qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

2 -moddada ta'lim to'g'risida qonun hujjatlari, 3 - moddada ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy printsiplari, 4 - moddada bilim olish va 5 - moddada pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi ko'rsatilgan.

6 - moddada ta'lim muassasasining huquqiy maqomi, 7 - moddada davlat ta'lim standartlari, 8 - moddada ta'lim berish tili haqida gapirilgan.

II bobda ta'lim tizimi va turlari ko'rsatib berilgan.

III bob ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoyasiga bag'ishlangan. 20-24 moddalarda bular yoritib berilgan.

IV bobda ta'lim tizimini boshqarish masalasi qonun bilan mustahkamlab berilgan. 25-29 moddalar shularga bag'ishlangan.

V bob yakunlovchi qoidalardir.

Shu qonun ta'lim-tarbiya, maorif sohasidagi ishlarimizda asosiy dasturimiz bo'lib xizmat qiladi, har bir o'qituvchi buni chuqur o'rganishi, tahlil qilishi va unga o'z faoliyatida amal qilishi lozim.

1997 yil 29 avgustdagi Qonun bilan birga yana bir muhim hujjat "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham qabul qilindi. Bu dasturning qabul qilinishi ta'lim-tarbiya sohasida yangi bir o'zgarish, yuksalish davrini boshlab berdi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" umumiy qoidalar va 5 bobdan tashkil topgan. Umumiy qoidalarda bu dastur "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qoidalarga muvofiq tayyorlanganligi aytiladi.

1-bob muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh kilish omillarini yoritishga bag'ishlangan. Dastlab O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng maorif sohasida yuz bergan o'zgarish va rivojlanish tahlil etiladi, kamchilik va muammolar ko'rsatiladi, isloh qilish omillari yoritib beriladi.

45

dashuv; chet tillar, din tarixi va xalqimiz tarixi chuqur o'rganish; ta'lim muassasalarining turli partiya, siyosiy harakatlardan holiligi kabi.

Qonunga ko'ra ta'lim 3 bosqichdan iborat bo'ldi:

boshlang'ich ta'lim (I - IV), - tayanch ta'lim (V - IX), - o'rta ta'lim (X - XI - XII).

Tayanch ta'lim majburiy qilib belgilandi.

1993 yili Respublikamizda jami 8963 ta umumta'lim maktabi bo'lib, unda 429500 dan ortiq o'qituvchi 4 mln 766600 dan ortiq o'qituvchiga ta'lim berdi. Litseylar ish boshladi. Iqtidorli bolalarni aniqlash va tarbiyalashga e'tibor kuchaytirildi.

Oliy ta'lim tizimida 25 ming o'qituvchi xizmat qilib, ularning 1091 nafari fan doktori, 11 mingdan oshig'i fan nomzodi edi.

1993 yilda 55 ta oliy o'quv yurti jumladan 16 universitet faoliyat ko'rsatib, ularda 317 ming talaba tahsil oldi. Pedinstitutlarda 19 mutaxassislik bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlandi.

1996 - 97 o'quv yilidan 1- sinflar lotin alifbosida o'qiy boshladi.

Milliy maktab bo'lishi uchun unga milliy rux singdirilishi kerak. Bu narsa tarbiyaviy tadbirlar, aniq, tabiiy, ijtimoiy va hatto chet tillar ham milliy zaminga asoslanib o'rgatilgandagina vujudga keladi.

Milliy maktablarda al - Termiziy, al - Buxoriy, Naqshbandlar ta'limotini, Sharqning buyuk mutafakkirlari, alloma va olimlari faoliyati va merosini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Xalqimizning milliy qiyofasi, milliy ruhi va milliy g'ururini tiklash uchun xalqning qadimdan shakllangan urf - odatlarini, madaniyati, tarixi, san'ati, axloqiy qarashlarini o'rganish, yosh avlodga singdirish kerak.

Milliy maktabni yaratish uchun quyidagi tamoyil va ustuvor yo'nalishlarni hayotga tadbiq etish lozim:

Har bir fan o'qituvchisi o'z sohasi bo'yicha madaniy va tarixiy merosni chuqur bilishiga e'tiborni kuchaytirish, ularning malakasini oshirish;

darsliklardagi milliy zamin, xalq turmushi bilan bog'lanmagan materiallarni chiqarib, ular o'rniga xalq pedagogikasi, tarixiy hikoyatlardan kiritish;

maktabda milliy kasb-hunarni o'rgatadigan tugaraklar tuzish;

maktablarda "Meros muzeyi"ni tashkil etish;

sinfdan tashqari tadbirlarda milliy urf-odat, an'analarga e'tiborni kuchaytirish;

maktab binosini, zalini milliy, madaniy va tarixiy merosni aks ettiruvchi ko'rgazmali materiallar bilan bezash.

Milliy tarbiya berish ishini avvalo oilada, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va undan keyingi tarbiya maskanlarida ham olib borish maqsadga muvofiqdir.

1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga yangi zamon talabi darajasiga ko'tarishga dahldor bo'lgan qonunlar ham qabul qilindi. Shu masalalar yuzasidan yurtboshimiz I.A.Karimov "Barkamol avlod -O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida nutq so'zladi. Bunda yangi qonunlar qabul qilishning zarurligini

ko'rsatib berdi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning hozirgi kun talabiga javob bermayotganligi ta'kidlab, kamchiliklarni ko'rsatdi:

44

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

Islom dini taraqqalgandan so'ng o'lkamizda musulmon ta'lim - tarbiya muassasalari va ulardagi o'qitish mazmuni haqida nimalar bilasiz?

Hadis ilmining asosiy yo'nalishlari va bu yo'nalishlar vakillari haqida gapirib bering.

Qaysi davrni Sharq o'yg'onish davri deb ataymiz va nima uchun?

Al Xorazmiy va uning didaktik qarashlari haqida gapirib bering.

Forobiyning qaysi asarlarida ta'lim - tarbiyaga oid qarashlari bayon etilgan?

Beruniyning didaktik qarashlari haqida gapirib bering.

Ibn Sinoning qaysi asarlarini bilasiz?

Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida ilm va bilimdonlikning ulug'lanishini ko'rsatib bering.

Zamaxshariy asarlari va ijodi haqida nimalar bilasiz?

Sufiylikning asosiy g'oyasini nimada deb bilasiz, ularga sizning munosabatingiz qanday?

27 - MAVZU. XIV - XVI ASRLARDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

REJA:

1. XIV - XVI asrlarda Movorounnahrda ta'lim - tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti.
2. Temuriylar sulolasi davrida ta'lim -tarbiya va pedagogik fikrlar. (Amir Temur, Ulug'bek, Boburning pedagogik qarashlari).
3. Alisher Navoiy ijodi va asarlarida shaxs kamoloti masalalari.
4. Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Voiz Koshifiylarning ta'limiy - axloqiy qarashlari.

Bu davr tarixi temuriylar hukmronligi davri tarixi bilan uzviy qo'shilib ketadi. Bu davrda ta'lim - tarbiya, madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo'shildi va ular hozirda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. XIV asrning 50 yillarida Amir Temur siyosat maydoniga chiqdi. Markazlashgan yirik feodal davlat barpo etdi. Madaniyat, maorif qaytadan yuksala boshladi. Shuning uchun XIV asrning 2-yarmi va XV asr tarixida Sharq uyg'onish davrining 2-bosqichi deb ataladi.

Temur Movorounnahrda boshqa o'lkalardan hunarmandlar, olimlar, san'atkor, muxandislarni olib keltirdi. Samarqand va Hirot madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar qurildi. Tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, geografi, tarix, adabiyot, falsafa, tarbiyashunoslikka oid ajoyib asarlar yaratildi.

Temurdan so'ng temuriylar davrida mamlakat Movorounnahr va Xuroson davlatlariga ajralgan holda boshqarildi. Samarqand va Hirot madaniyati, ilm - fan markaziga aylandi. Shoxizinda, Guriamir, Bibixonim masjidi, Registon maydoni, qator bog'lar va boshqalar barpo etildi.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya fanlari rivojlandi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va diniy bilimlarga e'tibor berildi. Buxoro, Samaraqnd, Fijduvonda madrasalar qurildi.

17

Bu davrda adabiyot sohasida Atoiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Lutfiylarning qimmatli asarlari yaratildi.

Samarqandda Qozizoda Rumiy, Mansur Koshiy, Hirot da esa Navoiy, Jomiy, Behzod, tarixchi Xondamir, hattot Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar ijodi gulladi.

Ali Qushchi astronomiyaga oid "Risoi dar falakkiyot" asarini yozib, unda geometrik bilim asoslari, tibbiyot fanlari va boshqa sohalarga oid boshlang'ich bilimlarni bayon etdi.

XV asrda tarix fani rivoj topdi, Hofizu Abru "Zubdan tavorix" (Tarixning qaymog'i) kitobi yozib, unda 1427 yilgacha voqealar bayon etildi. Abdurazzoq Samarqandiy buni davom ettirib, "Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo'shilish joyi" asarida 1471 yilgacha voqealarni bayon etdi. "Ravzatus safo" asarini yozgan

Mirxond, "Xabibus siyar" asarini yozgan Xondamir asarlarining bir qismi sulton Husayn hukmronlik qilgan davrga bag'ishlandi.

Shu asarlarda qator ilm maskanlari: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqalar qurildi.

Xususiy maktablar yuzaga keldi, uyda muallim yollab o'qitish odat tusiga kirdi. Shahar, qishloq, ovullarda ochilgan maktablarda o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Bolalar maktabda alifbe urganar, ayrim harflarni chizishni mashq qilardilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqargacha madrasaga kirib diniy va dunyoviy fanlardan bilim olardilar.

Amir Temur Kuragon ibn Amir Tarag'ay (1336-1405). Temur shaxsi masalasi uzoq yillar davomida man qilinganligi natijasida nafaqat Temur tarixi, balki Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi tarixi, madaniyati deyarli o'rganilmay qolgan edi. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi:

"Amir Temur nomi tariximiz sahifalarida qora buyoq bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalkimizning (ongidan) yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka kundirish edi. Lekin o'zbek xalki o'z ajdodlarini, uz bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi". Mustaqilligimizdan so'ng esa o'z milliy qadriyatlarmizni, tariximizni haqqoniy o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Yurtboshimiz Amir Temur hayoti, faoliyati, koldirgan buyuk merosiga katta e'tibor berdi. "Istiqlol va ma'naviyat" asarida Temurning yoshlikdan mard, dovyurak, mag'rur, o'tkir zehn va aql egasi bo'lganligi, Qur'onga amal qilib yashaganligini ta'kidlab o'tadi.

Prezidentimiz "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida ham Amir Temur qoldirgan katta meros haqida yozadi:

"Amir Temur kim edi? U birinchi navbatda ulug' bunyodkor shaxs edi. Samarqanddagi obidalar, Shaxrisabzdagi yodgorliklarni kim qurdi? Turkistondagi Yassaviy maqbarasini kim tikladi? Kim "Kuch - adolatdadir" degan olamshumul, teran hikmatni o'z faoliyatiga asosiy tamoyil qilib oldi?". Yurtboshimiz Temur va Temuriylarning biz uchun qoldirgan meroslarini yuksak qadrladi va baholadi.

Temurning qanchalik buyuk zot bo'lganligini uning nomiga qo'shilgan unvonlardan ham kurish mumkin. Uning ismiga "Kuragon" (xon kuyovi yoki kurkam, toza urug'dan), "Sohibqiron" (yulduz burjlarining baxtli kelishi (qiron)da tug'ilgan

18

"Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak... bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi, umuman maktablarda bolalar mustaqil fikr yuritishga o'rgatiladimi, aminmanki o'rgatilmaydi...

O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rni ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti....

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi... Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir".

"Tafakkur" jurnali muxbiri javobida prezidentimiz shunday fikr bildiradi:

"Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz".

"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasida ham komil insonga ta'rif beriladi: "Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz".

Yurtboshimiz "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonni yangilash va rivojlanishning ma'naviy-axloqiy negizlarini ham ko'rsatib beradi. Bular:

umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon etilishi;

vatanparvarlik".

"Ustoz", "Umid", "Kamolot", "Ulug'bek" va boshqa jamg'armalar tashkil etildi. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni alohida o'qitish va

tayyorlash, ularni xorijiy davlatlarga yuborib, bilim va malakalarini yanada oshirishga e'tibor berilmoqda.

Istiqloldan so'ng barcha sohada bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham islohatlar boshlandi. Pedagogika fani ham qaytadan mustaqilligimiz asosida qurila boshlandi. Avvalo, pedagoglarimiz kommunistik mafkura changalidan xolos bo'ldi. Pedagog olimlarimiz Qur'oni Karim, Hadis, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Qubro, Az-Zamaxshariy va boshqa allomalarimiz jadid ma'rifatparvarlari-ning ilmiy meroslaridan foydalangan holda, ularni keng tadqiq etgan holda yangicha yo'nalishda tadqiqotlar olib bora boshladilar.

O'zbek olimlari yaratgan "Pedagogika", "Pedagogika tarixi" qo'llanmalari muqobillik asosida chop etila boshlandi.

1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Shu qonun va shu yili tasdiqlangan "umumiy ta'lim maktablari to'g'risida muvoqqat Nizom" asosida ta'lim islohatlari olib borila boshlandi. Oldingi qabul qilingan Qonunlardan (1930, 1949, 1958, 1973, 1984) farqli xalq ta'limi tizimi tuzilishining yangi tamoyillari joriy etildi: ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi va xalqchilligi; ta'lim tizimining uzluksiz va izchilligi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, tayanch ta'lim (9 sinf)ning majburiyligi; ta'lim standartlarini tanlashga yagona va tabaqalashgan yon-

43

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir.

Tarbiyaning jamiyat rivojidadagi rolga yuksak baho berib Oliy kengash IX sessiyasida so'zlagan nutqida prezidentimiz shunday deydi:

"Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz!

Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-okibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan

kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi". (Barkamol avlod orzusi. T.1999).

Tarbiya qatori ta'limning ahamiyatini ham yurtboshimiz ulug'laydi:

Prezidentimiz ta'lim-tarbiya islohati haqida gapirar ekan e'tiborni avvalo milliy qadriyatimizni o'rganishga, milliy g'oya va mafkuramizni tiklashga qaratdi. O'tmish qadriyatlarimizning milliy g'oya tarbiyasidagi o'rnini muhim deb biladi. Ta'lim-tarbiya ishlarida shularga tayanishni lozim deb biladi:

"To'qqizinchi -o'n beshinchi asrlarda ma'rifatli dunyo buxoriylar, farg'oniylar, xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulugbeklarni qanchalik izzat ikrom qilgan bo'lsa, yigirma birinchi asrda biz xalqimiz, millatimizga nisbatan ana shunday ehtiromni qaytadan qo'lga kiritishimiz kerak. O'sha davrda ulug' ajdodlarimiz asos solgan va olamga dong taratgan ilmiy maktablarni zamonaviy shaklda qaytadan tiklashimiz lozim.

Takror aytamanki, bunga ta'lim-tarbiya tizimini tubdan islox qilish bilangina erishish mumkin". ("Tafakkur" jur. 1998. №2).

1997 yillarga kelib ham belgilangan ishlar, ta'lim-tarbiya sohasidagi isloxtalar talab darajasida amalga oshmadi, hali kamchiliklar ko'p edi. Shuning uchun ta'lim tug'risida yangi qonun va kadrlar tayyorlash buyicha milliy dastur ishlab chiqish kun tartibidagi muhim masalalardan bo'lib qolaveradi.

I.Karimov shunday deydi: "Lekin taasufki, respublikada kadrlar tayyorlash, ta'lim- tarbiya tizimida jiddiy o'zgarish ro'y bermayapti. Aslida islohatlarni mana shu sohadan boshlash kerak edi.

...zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i lozim..." ("Ma'rifat" gaz. 1997 y. 7 iyun).

Mana shu ta'lim-tarbiya sohasida o'tkazilayotgan islohatlardan asosiy maqsad esa, jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir. Yurtboshimiz barkamol avlod, unga xos sifatlar va ularni tarbiyalash yo'llari haqida ham o'zining muhim fikrlarini o'z nutq va asarlarida

bildirib o'tadi. Oliy Majlis IX sessiyasida so'zlagan nutqida shunday deydi:

"Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslning tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir". Mana shu barkamol avlodni avvalo mustaqil va erkin firlay oladigan kishilar qilib etishtirish lozimligi haqida prezidentimiz shunday deydi:

42

farzand) Iskandar, Muhammad payg'ambar, Temur), "Qutbiddin" (zamona peshvosi), "Abulmansur" (zafarmand, g'alaba qozonuvchi) kabi unvonlar qo'shilib ulug'langan.

Temur din arboblari, olimlarni, ilmni va ilm ahlini hurmatlovchi shaxs bo'lgan. Temur tuzuklarida shunday yoziladi:

"Harbir shaharda masjidlar, madrasalar, honaqalar qurishni buyurdim. Musulmonlarga diniy masalalarda ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tavsir, hadis, fiqhda dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim".

Amir Temur odob, axloq, iymon - e'tiqod, tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan insonlardan bo'lgan. Bunga ishonch hosil qilish uchun sohibqiron haqidagi asarlar, uning o'zi yartagan tuzuklar va ugitlarni kurish kifoya.

Mirzo Ulug'bek (1394-1449). Mirzo Ulug'bek urta Osiyo xalqlari ilm - fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, millat pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan buyuk siymolardan biridir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov Ulug'bek zimmasiga tushgan vazifa haqida yozgan edi: "Ta'qdir bu zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalarni yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi". ("Istiqlol va ma'naviyat" T.1994).

1411 yili 17 yoshli Ulug'bek Movorounnahr va Turkistonning hokimi etib belgilanadi. Uning tashabbusi bilan o'lkada ilm - fan,

ayniqsa falakkiyot ilmi yuksala bordi. U riyoziyot fanini mukammal egallagan va ungacha hech kim unchalik tez va aniq hisoblay olmagan.

U davlatning madaniy markazlaridan Buxoro (1417), Samarqand (1420) keyinchalik Fijduvonda (1433) madrasalar qurdirdi. Bu madrasalarda mashhur olimlar, ilohiyot ilmlaridan tashqari riyoziyot, xandasa, astronomiya, tibbiyot, tarix, geografi, ilmi aruzdan dars berishgan.

Madrasalarda mashhur, bilimli kishilar mudarrislik qildi. Yirik olimlardan Qozizoda Rumi, Fiyosiddin Jamshid ibn Mas'ud, Mansur Koshiy, Muhammad Birjoniy, Ali Qushchi kabilar faoliyat ko'rsatdi. Madrasada Ulug'bekning o'zi ham astronomidan ma'ruzalar o'qigan.

Madrasa qurdirganidan 4 yil o'tgach, Obirahmat soyining bo'yida rasadxona qurdiradi. Uning qurilishiga 5 yil ketadi. Kutubxona ochib, mashhur asarlarni yig'adi.

Madrasa bilan rasadxona o'rtasida mustahkam aloqa bor edi. Rasadxonada ishlaganlarning bir qismi madrasada mudarrislik ham qilishgan. Bu esa riyoziyot va yulduz ilmini yuksaklikka ko'tardi.

Ulug'bekning "Ziji Ulug'bek" asari juda mashhurdir. Yana riyoziyotga oid "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", yulduzlarga bag'ishlangan "Risolai Ulug'bek" va tarixga oid "Tarixi arba' ulus" asarlari bor.

Ulug'bek yoshlar ta'lim - tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Madrasalarda o'qitish tizimini janlantiradi. O'qish muddati 15-20 yildan 8 yilga tushiradi. O'quvchilar bilan rasadxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni joriy etadi.

Ulug'bek o'qituvchi - mudarrisga katta talablar qo'yadi. Mudarrsilar avvalombor, uzini tarbiyalamog'i, bilim va malakalarni egallamog'i, uz ustida tinmay

ishlashi, darslarni yuqori saviyada o'tishga ahamiyat berishi kerak. U ta'limda darsliklarning o'rnini muhim deb biladi. Shuning uchun darslik mazmuniga katta e'tibor beradi va mualliflar oldiga jiddiy talablar qo'yadi. Darslik hayot haqiqatidan uzoq bo'lmasligi, sodda, tushunarli tilda yozilishi lozim.

Ulug'bek ta'limda matematika, falakkiyot, adabiyot, tarix fanlariga katta ahamiyat beradi.

U o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunar egallagan, jasur, mard bo'lib etishishlariga alohida e'tibor beradi. U do'stlik va birodarlikni ulug'laydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530). O'zbek xalqining ilm va madaniyat xazinasiga o'lmas hissa qo'shgan mutafakkir olim, tarixchi, qonunshunos va lirik shoirdir.

Bobur ilm - fan, san'at, madaniyat va ularning sohalari bilan yaqindan tanishgan, uning ijodini asosan lirik she'rlar va adabiy - tarixiy asari - "Boburnoma" bilan ko'zga tashlanadi. "Boburnoma" qomusiy xarakterdagi kitob bulib, unda tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid ma'lumotlar berilgan.

Bobur yana musulmonchilikqoidalari va qonushunoslikka bag'ishlangan "Mubayyin". arab alfaviti isloxiga oid "Xatti Boburiy", aruz vazni va qofiyaga oid "Mufasssal", yana musiqa va harbiy san'at haqida asarlar yozgan.

Adib fan va ma'rifatni yuqori darajada qadrlaydi. Ilm, adabiyot, san'at ahlari bilan yaqin aloqada buladi, ularga homiylik qiladi.

Ilm va bilimdonlikni ulug'laydi. U kamtarlik, uzini tuta bilish, ezgulik, vafodorlik, boshqalarga yaxshilik qilish sifatlarini ulug'lab, yovuzlik, zulm, qabihlikni qoralaydi. Boburning pedagogik qarashlaridagi bosh masala vatanga cheksiz muhabbatdir.

"Boburnoma"da o'zbek, tojik, afg'on, hind va boshqa xalqlarning kasb - kori, urf - odati, madaniyati, dini, adabiti, turmush tarzi haqida keng ma'lumotlar beriladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441 - 1501) fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik rivojlantirish bilan birga ta'lim - tarbiya takomillashishiga katta e'tibor beradi. U o'zining "Xamsa", "Maxbubul qulub" kabi ta'limiy - axloqiy asarlarida, shuningdek "Munojat", "Vaqfiya", "Majolisun nafois", "Muxokamat ul-lug'atayn" asarlarida, Jomiydan tarjima "Qirq hadis" kabilarida tarbiyaga oida qarashlarini ifoda etadi.

Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini uz manfaatidan ustun qo'yadi:

Yuz jafo qilsa menga bir qatla faryod aylamam,

Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram.

yoki

Odami ersang demagil odami

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Alisher Navoiy inson kamolotida ilmning o'rnini muhim deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi. U bilimda barcha fanlarni urganishni targ'ib etadi.

20

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQ

XX - asrning 70 - 90 yillarida faoliyat ko'rsatgan pedagog olimlarimiz asarlari, ilmiy ishlari ro'yxatlarini tuzish, ularning ayrimlaridan qisqacha konspekt tuzish.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

1917 to'ntarishigacha O'zbekistonda qanday ta'lim tarbiyaviy muassalar bor edi va ulardagi o'qitish ma'zmuni qanday edi?

1917 yildan so'ng ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar, bungacha mavjud bo'lgan tarbiya muassalariga munosabat?

Alfavitga o'qitish bo'yicha qaysi yillarda qanday o'zgarishlar bo'ldi va bunga sizning munosabatingiz qanday?

O'rta, o'rta maxsus, oliy o'quv yurtlarining ochilishi, ular sonining ortib borishi haqida nimalarni aytib berasiz?

XX - asr 30 - yillaridagi qarorlar va ularning ahamiyati?

Ikkinchi jahon urishi O'zbekiston maorifiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

Bolalar bilimi va xulqini 5 - ballik tizim asosida baholashga qachon o'tildi?

80 - yillardagi umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilish zaruratining yuzaga kelishi va isloxat mazmuni.

70 - 90 yillarda pedagogika fani rivojiga hissa qo'shgan pedagoglardan kimlarni bilasiz?

31 - MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYO'I.

REJA:

1. Prezident I.A.Karimov asarlarida barkamol avlod tarbiyasi va ta'lim - tarbiyani islox qilish g'oyalari.
2. O'zbekiston mustakillikka erishganidan so'ng ta'lim tizimidagi isloxatlar. Milliy maktab tashkil etilishiga doir fikrlar.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va unga asosan ta'lim tizimi, turlari.
4. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mohiyati, maqsadi va vazifalari.

1991 yil O'zbekiston o'z mustakilligiga erishgan kundan boshlab jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim - tarbiya masalasiga va barkamol avlod tarbiyalashga katta e'tibor qaratdi.

I.A.Karimov o'zining qator asarlari, maqola va nutqlarida shu masalaga oid qarashlarini bayon etdi. Eng avvalo yurtboshimiz quyidagi so'zlarini keltirishni lozim deb bilaman:

"Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

41

pedagogikasi va uning xalq og'zaki ijodida aks ettirilishi" (1967) asarida xalq pedagogikamizni birinchi bor tadqiq qildi.

70 - 80 yillarda ham ta'lim tizimida muhim o'rinni egallagan umumiy ta'lim maktablari davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qilardi. 1972 yili hukumat tomonidan "Yoshlarni umumiy o'rta

ta'limga o'tkazishni tugallash va umumiy ta'lim maktablarini yanada rivojlantirish to'g'risida". Yoshlarni umumiy o'rta ta'limga o'tkazish 1975 yilga kelib tugallandi.

1975 - 76 o'quv yilida O'zbekiston qishloq va shaharlariga 9642 ta umumta'lim maktabi bo'lib, ularda 38028 ming o'quvchiga 237,5 ming o'qituvchi saboq berdi.

Shu o'quv yilida 42 ta oliy o'quv yurtida 246,4 ming talaba ta'lim oldi, ularda 400 fan doktori va 5 mingdan ortiq fan nomzodlari mehnat qildilar.

Maktabgacha tarbiya muassalariga 900 mingdan ortiq bola jalb etilgan.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy muassalarga 440 mingdan ortiq bola tortildi.

80 yillarga kelib jamiyatning ko'p sohalardagi kamchiliklar ko'zga tashlanib, keng ko'lamda qayta qurish ishlari boshlab yuborildi.

Hukumatning "Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari" 1984 yil ma'qullandi.

O'zbek pedagogikasi butunlay o'sishdan to'xtab qolmadi.

Ko'plab olimlarimiz uni yuksalishi yo'lida tinmay mehnat qildilar. 70 yillarda o'zbek pedagogikasi ravnaqi uchun ayniqsa, Siddiq Rajabov (1910-1993) fidoyilik ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqot va Nizomiy nomli TDPI da ishlaydi. "O'zbekiston maktablari tarixi" mavzusida doktorlik disertatsiyasini himoya qiladi. "Pedagogika fani taraqqiyotining ba'zi masalari", "Tarbiya va o'qitishda klassik ta'limot", "Oliy ta'lim didaktikasi" kabi o'nlab asarlari nashr etiladi.

Pedagogika fani rivojiga Malla Ochilov (1931) katta hissa qo'shdi. Uning "O'qituvchi odobi", "Studentlarning axloqiy tarbiya jarayoni", "Bo'lajak o'qituvchini axloqiy shakllantirish", Studentlarning ilmiy tadqiqot ishlari" kabi risolalari mashhurdir, u chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarini 1- bo'lib o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Iqtidorli olim hozirda Qarshi DU pedagogika kafedirasini boshqarmoqda, ko'plab shogirdlariga ustozlik qilib kelmoqda.

80 yillarda Muzaffar Abdullaevning (1931) Forobiy qarashlari haqidagi tashqiqotlari pedagogikani yangi bosqichga ko'tarilishiga

sabab bo'ldi. "Abu Nasr Forobiy", "Forobiy va uning risolalari", "Forobiy ta'lim tarbiya to'g'risida" kitoblarini yozdi. FA ning haqiqiy a'zosi, hozirda Sharqshunoslik institutida direktorlik qilib kelmoqda.

O.Sharoffidinov, I.Husanxo'jaev, Z.Mirtursinov, R.Usmanov va boshqa olimlarimiz pedagogikamiz ravnaqi yo'lida kurashgan.

40

Navoiy ilm - fanni yuksaltirish uchun Ixlosiya madrasasini tashkil etadi, uning yonidan maktab ochib, o'z vaqfidan mablag' ajratadi. Madrasada qattiq intizomga amal qilingan.

Adib ustoz - murabbiylarga ham katta talablar qo'yadi, ularni avvalo o'zlari bilimli va tarbiyali bo'lishlari lozim deydi. Shu bilan birga ustozlarning mehnatini juda qadrlaydi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuzganj ila.

Shoirning "Xamsa"siga kirgan "Hayratul abror" dostoni va "Maxbubul qulub" asarlari axloqiy - didaktik asarlardan hisoblanadi. "Hayratul abror"dagi masalalarni 3 turkumga ajratish mumkin: 1. Falsafiy masalalar. 2. Ijtimoiy - siyosiy masalalar. 3. Axloqiy - ta'limiy masalalar.

Asarning 5- maqoloti insoniy fazilatlardan biri - saxiylikka bag'ishlanadi. 6 - bob tarbiyaga bag'ishlanadi. Bolaga dastlab yaxshi ot quyish, so'ngra yaxshi muallimga berish, yaxshi tarbiya berishni maslahat beradi. Bolalarni esa ota - onani hurmat etishga chaqiradi:

Boshni fido ayla ato qoishiga,

Jismni qil sadaqa ano boshiga.

Ikki jahoningga tilarsen fazo,

Hosil et ushbu ikkisidan rizo.

Tun-kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Alisher Navoiy o'z pedagogik qarashlarida bolaga yoshlikdan ta'lim va tarbiya berish, o'g'il - qizlarni 6 yoshdan muallimga berish lozimligini aytadi. Turli fanlar va hunar egallashni maslahat beradi.

Abdurahmon Jomiy (1414-1492) Jom shahrida tug'iladi, yoshligida ularning oilasi Hirotga ko'chib o'tadi. Maktab, keyin Nizomiya madrasasida o'qiydi. Keyin Samarqandda uz ilmini oshiradi. U ko'p sohalar bo'yicha chuqur bilim oladi.

Jomiy 1469 yili Hirotga Navoiy bilan uchrashadi, do'stlashadi. 1472 yili Xajga boradi mashhur olimu mutafakkirlar bilan muloqotda buladi. 2 yillik safardan so'ng Hirotga qaytadi.

Jomiy 3 ta lirik devoni, 7 ta dostondan iborat "Xaft avrang", ta'lim - tarbiyaga oid "Bahoriston" asarlari bilan jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan.

Ta'limiy axloqiy qarashlari "Bahoriston" va "Xaft avrang"ga kirgan "Tuxfat ul - axror", "Silsiltul zaxob" (Oltin tizmalar) asarlarida ifodalangan.

Jomiy inson kamolotining birinchi mezonini bilimlilik deb biladi. Kasb - hunarli bo'lishni ham kamolot mezoni deb biladi. U tarbiyaning roliga ham katta baho beradi. U insonda yaxshilik, saxiylik, shirinso'zlik, kamtarlik, sabr - qanoat, rostlik, mehnatsevarlikni tarbiyalashga alohida e'tibor beradi.

Adib inson xirs va ta'madan uzoq bo'lishini istaydi. "It va gado" hikoyatida bu aks etadi. (It berganingga qanoat qiladi, gado esa qancha narsasi bo'lsa ham yana talab qilaveradi).

21

Jaloliddin Davoniy (1427-1502) Eronning Davon qishlog'ida tug'iladi. Boshlang'ich ma'lumot olgach, Sherz madrasasida o'qiydi, shu erda qozilik qiladi. Mudarrislik ham qiladi.

U falsafa, pedagogika, riyoziyot, fikx bo'yicha asarlar yozadi. "Risolayi isboti vojib" (Zaruratning isboti haqida), "Risola-tul-Xuruf" (Harflar haqida risola), "Risoladur ilmul nafs" (Ruhshunoslik haqida), "Axloqi Jaloliy" asarlarini yozgan.

"Axloqi Jaloliy" mashhur bo'lib, madrasalarda o'qitilgan. U 1839 yilda V.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Asarda ijtimoiy - siyosiy masalalar, axloq - odob qoidalari uz aksini topgan.

U tarbiyada maktab va oila rolini kursatadi. U qo'pol, badjahl muallimlarni tanqid qiladi, u aklli, yaxshi hislatli bo'lish lozim, deydi. Ota bolani jismoniy tarbiyalasa, muallim uni ma'naviy tarbiyalaydi. Oila va maktab tarbiyasini taqqoslaydi, bunda muallimning roli, o'rni yuqoriligini ko'rsatadi.

U kasb - hunar egallashni insoniy fazilat deb biladi. U kasb - hunar egalarini 4 toifaga bo'ladi: 1. Qalam ahllari: olim, noib, munajjim, qozi, muxandislar. 2. Harbiylar. 3. Savdogar, hunarmandlar. 4. Dehqonlar.

Devoniy insoniy fazilatlarini 4 ga bo'ladi: donolik, adolat, shijoat, iffat. U bularning har biri ichiga ham yana qator fazilatlar kiritadi. U yana sevgini 5 xilga buladi: 1. Ilohiy sevgi. 2. Ota - onaga muhabbat. 3. Muallimning o'z talabasiga muhabbati. 4. Podshoning fuqarosiga muhabbati. 5. Ilm - ma'rifatga muhabbat. U sevgini ham kamolot belgisi sifatida qaraydi.

Devoniy insondagi yomon xislatlar haqida gapirish bilan birga ularni bartaraf etishga ham maslahatlar beradi. Devoniyning ta'lim - tarbiyaga oid qarashlari hozirgi kunimiz uchun ham g'oyat qimmatli va foydalidir.

Husayn Voiz al Koshifiy (XV asr, 1440 - 1505) Sabzavor shahrida tug'iladi. U falsafa, axloq. tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geologiya, tarix, kimyo va boshqalarga oid 200 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ulardan "Axloqi Karim", "Anvari Suxayliy", "Javohirnoma", "Sonlar haqida risola", "Iskandar oynasi". "Xotamtoy haqida risola" va odob - axloq haqidagi qarashlar ifodalangan "Axloqi Muxsisniy" va "Futuvvatnomai sultoni" asarlaridir.

Koshifiy "Axloqiy Muxsin"da inson kamolotida ta'lim - tarbiya va bilimning urnini kursatadi. U bolani tarbiyasi haqida ota - ona va muallimlarga muhim ko'rsatmalar beradi. Muallimlar oldiga talablar qo'yadi, ular dono, bilimli, shirinsuxan va adolatli bo'lishlari lozim.

U ilmga yuksak baho berishi bilan birga uning jamiyat rivojidadagi o'rnini ham ko'rsatadi. Axloqiy sifatlarga to'xtab, yaxshilikni ulug'laydi, uni mamlakatning tuzi deb biladi.

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

"Temur tuzuklari"ni o'rganish, tahlil qilish.

Jaloliddin Davoniyning "Axloqi Jaloliy" va Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoni" asarlarini o'rganib, qisqacha konspekt tuzish.

Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini yana bir bor ko'zdan kechirish, dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish. Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish.

22

Oliy va o'rta maxsus ped. o'quv yurtlari soni ortdi. 1933 - 37 yillarda respublikada 26 ta pedtexnikum, 5 ta rabfak, O'rta Osiyo davlat universiteti, Navoiy nomidagi Samarqand DU, Toshkent, Farg'ona, Buxoro pedinstitutlari faoliyat ko'rsatdi.

Bu davrlarda hukumatning maorif sohasida olib borgan siyosati natijasida o'zbek xalqi o'z tarixi, milliy urf - odati, an'ana, umuminsoniy qadriyatlarni bilish va o'rganish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi., millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun kurashgan ma'rifatparvarlar surgunlarda azob chekdilar.

Urush davrida barcha moddiy resurslar va xalqning ma'naviy kuchlari frontga jalb etildi. O'zbekiston ham himoyaga o'z hissasini qo'shdi.

Dushman bosib olgan erlardagi ko'plab ishlab chiqarish korxonalari O'zbekistonga ko'chirildi. O'zbekiston ularni joy va ishchi kuchi bilan ta'minladi. Armiyani oziq - ovqat, kiyim bilan ta'minlashga hissa qo'shdi.

Urush davrida barcha sohadagi kabi maorif sohasida ham qiyinchilik bo'ldi. Ko'plab o'qituvchilar armiyaga chaqirildi, maktab binolari ospitalarga aylantirildi, o'quv qurollari etishmasdi.

O'quv dasturlari sharoitga moslashtirildi. 1943 yil 8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni hisobga olish va ularni majburiy ta'limga

tortish haqida qaror chiqdi. Shu yili o'g'il va qizlarni alohida o'qitish ham joriy etildi. Maktabga qatnovchi qizlar soni ortdi.

O'zbekistonga evakuatsiya qilinganlar soni ortib bordi. Ular 1942 yili 716 mingga etdi. 1943 yil 154 ta, 1945 yili 242 ta bolalar uyi bor edi.

Urush davri qiyinchiliklaridan yana o'qish 3 smenada olib borildi, darslar 40 minut bo'ldi, ashula, rasm darslari o'tilmadi. O'qituvchilar kamayib, xotin - qizlardan o'qituvchilar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Yana bir qiyinchilik esa urushdan oldin rus grafikasiga o'tilgan edi, lekin hali o'tib ulgurilmagan, kitoblar chop etilmagan edi.

1944 yildan bolalar bilimi va xulqini 5 ballik tizim asosida baholashga o'tildi.

Urushdan keyin xalq maorifini yuksaltirish choralari ko'rildi. 1949 yili umumiy majburiy 7 yillik ta'limga o'tildi. Kasbga o'rgatish maqsadida texnikumlar soni ko'paytirildi. 1956 yildan internat maktablar vujudga keltirildi.

O'qituvchilarga talab kuchaydi. 1953 yildan pedbilim yurtlari o'rta maktab negizida ishlaydigan bo'ldi, o'qish muddati 2 yil edi. 1952 yildan o'qituvchilar institutlari pedagogika institutlariga aylantirildi.

1962 - 63 o'quv yilidan 7 yillik maktablar qayta tashkil etilib, 8 yillik maktablarga aylantirildi.

1962 yilda ToshDU qoshida birinchi marta pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi Birlashgan Sovet tashkil etildi.

Turg'unlik yillarida hukumat siyosatidagi har qanday moneliklarga qaramay, mavjud imkoniyatlar doirasida Markaziy Osiyo, jumladan o'zbek ziyolilari ulug' mutafakkir shoir va olimlarimizning pedagogik fikrlarini tadqiq etish davom etdi. 60 - 70 yillarda Furqat, Sadridin Ayniy, Alisher Navoiy, Jomiy va Davoniy, Abdulla Avloniy kabi allomalarimizning ta'lim - tarbiya haqidagi fikrlari tadqiq etildi. "Kalila va dimna", "Qobusnoma" nashr qilindi. Taniqli pedagog olim Z.Mirtursunov "O'zbek xalq

O'lkada o'rta, maxsus o'rta va oliy o'quv yurtlari ham ochila boshladi. 1918 - 20 yillar ichida Turkiston sharqshunoslik instituti, Timiryazev nomidagi bilim yurti, Xotin - qizlar bilim yurti, va boshqalar, 1921 yil ximiya - formakologiya instituti, konservatoriya, 6 ta qishloq xo'jalik texnikumi ishga tushdi. Bular orasida 1918 yili 21 aprelda Toshketda ochilgan Turkiston xalq universiteti alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Uning viloyatlarda bo'limlari tashkil etiladi. Sobiq RSFSR XKS ning 1920 yil 7 sentyabr dekreti bilan shu universitet negizida Turkiston davlat universiteti tashkil etildi.

Pedagogika o'quv yurtlari - ped texnikumlar ochildi. Lekin o'qituvchi kadrlar etishmasligi katta muammo edi. 1920 yilga kelib 1200 o'qituvchi tayyorlandi.

1920 yili birdan 7 ta maorif instituti (inpros) tashkil etilib, ularga 1145 talaba qabul kilindi. 1921 - 22 o'quv yilida o'lkada 2403 ta maktab va boshqa bolalar muassasalari ishlab, ularda 170105 bola o'qiganligi aytiladi.

1924 yili davlat chegaralanishi o'tkazilib, sobiq sovet respublikalari tashkil topgandan so'ng respublikalarda iqtisodiy - ijtimoiy va madaniy yuksaklikka erishish maqsadida bolalarni umumiy ta'limga tortish, kattalar orasida yangi yo'sindagi savodsizlikni tugatish kerak edi. Shuning uchun 1930 yili 14 avgustda sobiq SSSR MIK va XKS tomonidan "Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim haqida" qaror qabul qilindi. Unda 8 - 10 yoshli bolalarni boshlang'ich maktablarning kamida 4 yillik kursi hajmida umumiy majburiy o'qishga jalb etish, 11 - 15 yoshli mehnat maktabining 4 yillik kursida o'qimaganlar uchun tezlashtirilgan 1 - 2 yillik kurslar tashkil etish, sanoat shaharlarida 1930 - 31 o'quv yilidan 7 yillik majburiy maktabga bolalarni tortish masalalari ko'zda tutildi.

1929 yili O'zbekistonda arab alifbosi o'rniga lotin alifbosi qabul qilindi.

1931 yil 5 sentyabr "Boshlang'ich va o'rta maktablar to'g'risida" qarorida yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatildi, darsni uyushtirish va o'tkazish metodikasini yaxshilashga e'tibor berildi. Fanlar bo'yicha sikl birlashmalari tashkil etish, pedagogik birlashma tashkil etish masalalari ko'rildi.

Yangi o'quv dasturlari tuzildi. 1932 yil 25 avgustda "Boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv programmalari va rejimi haqida" sobiq VKP(b) MK ning qarori chiqdi.

1933 yil "Boshlang'ich va o'rta maktab darsliklari" haqidagi qaror chiqdi, tez o'zgaradigan darsliklar yaratish qoralandi.

1933 yildan sinfdan - sinfga ko'chirish sinovlari joriy etildi.

1934 yildan maktablarda sinf rahbari vazifasi ta'sis etildi.

Pedagogika darsliklari yaratila boshlandi. 1932 - 40 yillarda A.Afrikanov, P.Gruzdev,, I.Kairov, B.Esipovlarning pedagogika oliy va o'rta o'quv yurtlari uchun darslik, qo'llanmalari nashr etiladi.

1940 yil Toshkentda respublika o'qituvchilarining 1 - se'zdi o'tkazildi. Ta'lim - tarbiyani yaxshilash, majburiy o'rta ta'limni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

1940 yil may oyida sobiq O'zSSR Oliy sovetining 3 - sessiyasida "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitiga ko'chirish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

Temur davlatining gullab - yashnashiga nima sabab bo'ldi?

Nima uchun XIV - XVI asrni Sharq o'yg'onish davrining 2-davri deb atash mumkin?

Amir Temurning madaniyat, ilm - fan, san'at rivojiga qo'shgan hissasi qanday?

"Amir Temur o'g'itlari" va "Temur tuzuklari"ni avval o'qiganmisiz, ularning ahamiyatini qanday tushunasiz?

Ulug'bekning riyoziyot va falakkiyot fanlari rivojiga qo'shgan hissasini qanday baholaysiz?

"Boburnoma"ning tarbiyaviy ahamiyati qanday?

Jomiyning "Bahoriston" asarida axloq - odob masalalari.

Jaloliddin Davoniy va Voiz Koshifiy, ularning asarlari, qarashlari haqida nimalar bilar edingiz, bular siz uchun yangilikmi?

28 - MAVZU. XVII - XVIII ASRLAR VA XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TARBIIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.

REJA:

1. XVII - XVIII asrlar va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarida ilm - fan taraqqiyoti.
2. Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Nodiraning tarbiyaga oid qarashlari.
3. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solixin" asari va uning tarbiyaviy ahamiyati.
4. Muhammad Rizo Ogahiy, Munis Xorazmiylarning pedagogik qarashlari.

XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida Movorounnahrda 150 yil hukmronlik qilgan temuriylar sulolsai inqirozga uchradi. XV asr oxirida Shayboniyxon Utror qalasini, Turkistonni so'ngra Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysini, 1506 yili Hirotni bosib oldi. Eron shohi bilan urushda Shayboniyxon (1510) halok bo'ldi. XVI asrda Ashtorxoniyalar hukmronligi o'rnatildi. O'zaro nizolar avj olib ketdi, natijada Movarounnahrda uchta xonlik, avvalo, Buxoro va Xorazm, XVIII asr oxiriga kelib Qo'qon xonligi qaror topdi.

Buxoro xoni Abdullaxon davrida boshqa davlatlar bilan har tomonlama aloqalar o'rnatishga erishildi. Abdullaxon 1001 ta rabot va sardoba, ko'plab madrasa, masjid, ko'prik, suv omborlari qurirdi. U yozuvchi, shoir, olimlarni to'plab ularga homiylik qildi.

Saroy muarrixlaridan Hofiz Tanish dalillar asosida "Abdullanoma" nomli tarixiy asarini yozdi.

Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiy "Dastur al-iloj", Muhammad Yusuf Maxxol "Zubdat ul-kaxollin" asarlarini, shoir va adiblar Bobur, Solix, Majlisiy, Hasan Nisoriy, Binoiy, Vosifiy, Ubaydiylar ijod qildilar.

Shu davrlarda Muhammad Balxiyning "Subxonqulixonoma", Mir-Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Muhammad Vali samarqandiyning 200 adib haqida ma'lumot beruvchi "Muzakkirul asxob" nomli asarlari, Sayido Nasafiyning Naqshbandiyga bag'ishlab yozgan qasidolari, Sufi Olloyor va Boborahim Mashrabning she'rlari yuzaga keldi.

Bu davrda ko'proq adabiyot, tarix, me'morchilik, tasviriy san'at rivojlandi. Ayniqsa, Abulg'oziyning "Shajarai turk" asari mashhur edi. Abulg'oziy 1645-1663 yillarda hukmronlik qilgan. xukmdor, olim, tarixchi va adib bo'lgan.

U Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish maqsadida o'z saroyiga binokorlar, tabib, shoir va boshqalarni to'playdi. Xonlik tarixini yaratishga kirishadi. "Shajarai taroqima" (1661), "Shajarai turk" (1664) va tabobatga oid "manofe' ul-inson" (1644) kabi asarlarni yaratadi. Xorazm tarixchilik maktabiga asos soldi.

XVIII asrda yashab ijod etgan ma'rifatparvarlar orasida Sufi Olloyor ancha mashhur bo'lib, uning asarlari maktab va madrasalarda o'quv qo'llanmasi sifatida ishlatilgan.

U fikxga oid "Siroj ul-ojizin", "Sabot ul-ojizin", "Murod ul-orifin", "Najot ul-tolibin" asarlarini yaratadi. "Sufi Olloyor" nomi bilan mashhur bo'lgan "Sabot ul-ojizin" asari maktablarda savod chiqarilishi bilan o'qitilar edi.

Bu davrda ijod etgan Fazliy Namongoniy, Mushfiqiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Shermuhammad Munis va Ogahiy, Kiromiy, Mulla Shermuhammad, Akmal, Muhammad Aminxoja Kosoniy, Mavlono Nodirlar o'z zamonasining zabardast siymolaridan edilar. Ko'plab me'morchilik obidalar qurildi.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, xandasa, mantiq, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalariga oid nazariy bilimlar, ish yuritish, savdo - sotiqqa oid o'nlab ilmiy bilimlar, dunyoviy va diniy bilimlar o'rgatilar edi. barcha madrasalarda majburiy fan sifatida "Qur'on", "tafsir", "Odob as-solixin", "Sabot ul-ojizin", "Kimyoi saodat", "Xadis" kabilar o'qitilardi. O'qish muddati 15-20 yilni tashkil etgan. Masjid yonidagi

maktablarda bolalarga 7 yil alifbe, abjad, Qur'on, chor kitob, Xoja Xofiz, Mirzo Bedildan savod o'rgatilgan.

O'zbek bolalari o'qiydigan maktablarda "Kitobi Fuzuliy", "Lisonut - tayr", "Devoni Alisher Navoiy", "Huvaydo", "Qissai devona Mashrab", "sabot ul-ojizin" kitoblari o'qitilgan. Savod chiqqandan barcha maktablarda Sufi Olloyor o'qitilgan.

Lug'atshunoslik, tarixnavislik, she'riyat rivojlandi. Ko'plab asarlar fors, arab boshqa tillardan tarjima qilindi.

Ta'lim - tarbiya jarayonida xotin qizlarga, ayollar tarbiyasiga katta e'tibor berildi. O'qimishli, ziyoli ayollar tomonidan maktablar tashkil qilindi va ular Xotinlar maktabi nomi bilan shuhrat qozondi.

Jahon Otin Uvaysiy (XVIII asrning 80-yillarida tug'ilib, 65 yoshlarida vafot etgan) Marg'ilonlik olim va fozil kishining qizi edi. Jahonbibi ota - onasi, akasi ko'magida o'zicha mutolaaga beriladi. Jomiy, Navoiy, Fuzuliy asarlarini sevib o'qiydi. Uvaysiy taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi. Uning otinlik faoliyati ham ancha vaqtli boshlanadi U onasi Chinibibi o'qitadigan maktabda avval xalifalik qilgan, keyin o'zi qizlarni o'qitgan.

24

davr mobaynida ajdodlarimiz, millatimiz mashaqqatli sinov va kurash yo'llarini bosib o'tdi. Bobolarimiz chor Rossiyasining zulmini beadam tortgan bo'lsa, otalarimiz Oktyabr tuntarishini, Grajdandlar urushini, quloqlashtirish kompaniyasi, Stalin qatog'onlarini, Ikkinchi jahon muxorabasining azobu - uqubatlarini, tahlikali elliginchi va nihoyat "desantchilar zulmi" nomini olgan saksoninchi yillar voqealarini bevosita boshidan kechirdi. Biz - nisbatan yosh avlod esa "rivojlangan sotsializm" deb atalgan davrni ham ko'rdik, kommunistik mafkuraning hukmron tazyiki ostida ham yashadik. Bu mafkura zulm va zo'ravonlikka, g'irromlik va soxtakorlikka asoslanganini yaxshi bilamiz. Shu sababli ham u halokatga uchradi".

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek mana shu mustamlakachilik siyosati zulm va asoratlari ta'lim - tarbiya, milliy o'zlikni anglash sohalarimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Sobiq Sho'ro tuzumi davrida pedagogika fani butunlay boshqacha negizda shakllantirildi. Bu sobiq sovet pedagogikasining ajralmas qismi edi. Rus pedagogikasidan rus olimlari yozgan darsliklardan foydalanildi. Natijada o'zbek pedagogikasi markscha - lenincha nazariya doirasida shakllangan soxta fanga aylanib ketdi.

Oktyabr tuntarishidan so'ng 3 ta xonlik o'rniga yangi yo'nalishdagi mafkuraga asoslangan Turkiston Muxtor Jumhuriyati, Buxoro va Xiva Xalq Respublikalari tashkil topdi.

Maktablardagi o'quv - tarbiya ishlari mazmuni tuzum maqsadi asosida o'zgardi. Din va Qur'oni Karimga e'tibor umuman taqiqlandi. 1918 - 20 yillarda yangi siyosat asosida o'quv reja va dasturlari tuzildi, dars va tadbirlar shu asosida o'tkazildi. Tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslarida esa rus yozuvchilarini o'rgatishga e'tibor qaratildi. Aniq fanlarni o'qitish miqyosi kengaydi. Ijtimoiy fanlarni o'qitishda ham o'zgarishlar bo'ldi.

Avvalo milliy maktablarda o'qituvchilar etishmasligi ko'zga tashlandi. 1918 yil 20 yanvardagi sobiq RSFSR XKS ning "Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'grisida"gi dekreti asosida turli mullalar, ziyoli din ahllarining maktablarda dars berishlariga yo'l quyilmadi.

Hukumatning xalq maorifi sohasidagi yangi siyosatiga javoban ulkada juda ko'plab maktablar ochilib, o'quvchilar soni ancha oshgan. 1918 yili Toshkentda o'lka maorif xodimlarining se'zdi ochilib, xalq maorifini qayta qurish bo'yicha tadbirlar belgilangan. "Mehnat maktablari" deb atalgan maktablar ochildi. Yangi tipdagi maktablar vujudga kela boshladi. 1918 yil bahoriga kelib respublikada ishlab turgan maktablarning soni 330 taga etdi.

1919 - 20 o'quv yili boshida Farg'ona viloyatida 350 ta, Sirdaryo viloyatida 839 ta, Samarqand viloyatida 216 ta maktab ishladi.

Qizlar maktablari ochila boshladi. 1917 yili Beshyog'ochning Zevak mahallasida Bashorat Jalilova maktab ochib, 22 ta o'zbek qizini o'qitadi. Keyin bunday maktablar soni ko'payib boradi.

U o'z pedagogik faoliyatida va ijodida xotin-qizlarning ilm olishiga, jamiyat ishlarida qatnashishiga jiddiy e'tibor beradi. Hamza mohir pedagog, yozuvchi, kompozitor sifatida xalqimizga sidqidildan xizmat qiladi. (Avloniy va Hamzaning pedagogik qarashlari seminarda to'liq o'rganiladi).

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Jadid ma'rivatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid fikrlaridan to'plash, ularning maqolalaridan konspekt qilish.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarini o'rganib, tahlil qilish konspekt tuzish.

MAVZU UCHUN SAVOLLAR

XIX asr 2 yarimlarida Turkistonda qanday diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar bor edi?

Chorizm maktab siyosatining bosh maqsadi nima edi?

Rus va rus-tuzem maktablari kimlar uchun edi va ularda qanday fanlar o'qitiladi?

Jadidchilik va uning Turkistonda yoyilishi haqida nimalarni bilar edingiz, ularni qaysi manbalardan o'qigansiz?

Jadidchilikka hozirgi kunda qanday baho berilmoqda, bunga sizning munosabatingiz qanday?

Jadidlar yaratgan maktablarning eski usul maktablardan farqi nimada edi, jadid maktablarida nimaga e'tibor berildi?

Jadid ziyolilari ma'rifatparvarlik faoliyatlari qaysi yo'nalishlarda olib bordilar?

Yangi usul maktablarga chor xukumati qarshilik qilishining sababi nimada deb o'ylaysiz?,

30 - MAVZU: 1917 - 1990 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTAB VA PEDAGOGIKA FANI.

REJA:

1. 1917 - 20 yillarda Turkistonda maorif yangi tizimining tashkil etilishi va pedagogik fikrlar.
2. 1924 - 41 yillarda xalq maorifi, o'quv dastur, qo'llanma va darsliklarning yaratilishi, ta'lim - tarbiya ishlari.
3. Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi yillarda O'zbekistonda xalq maorifi va ta'lim - tarbiya ishlari. Majburiy 7 yillik ta'limga o'tilishi.
4. XX asrning 70 - 90 yillarida xalq ta'limi va pedagogik fikrlar.

1917 - 1990 yillar davri haqida gapirganda Prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish avvalo o'rnlidir:

" ...bundan 130 yil muqaddam xalqimiz milliy mustaqilligini va tarixiy davlatchiligini yo'qotib, mustamlaka asoratiga tushib qolgan edi. Shu

36

Nodira Uvaysiyni ham Qo'qonga, xon saroyiga olib keltiradi. Hovli - joy in'om qiladi.

Uvaysiy o'z asarlarida axloq - odob, tarbiya masallariga ham e'tibor beradi. Pedagogika uning she'rlariga singib ketgan.

Uvaysiy otin sifatida ham o'ziga xos o'rin tutadi. U o'z maktabida ta'lim - tarbiya sohasida ilg'or usullarni qo'llaydi.

XIX asrlarga kelib quyidagicha boshlang'ich maktablar bor edi:

O'g'il bolalar maktablari - o'g'il bolalarga diniy ta'lim - tarbiya berilgan.

Otinoyi maktablari - qiz bolalarga islom qoidalarini o'rgatgan va boshlang'ich ta'lim bergan.

Otin maktablari asosan xususiy bo'lib, otinlarning uylarida tashkil qilingan. Bular muayyan bir o'quv rejasi va dasturiga ega emas edilar. O'quvchilar kitoblarni o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlashtirilgan.

Otinoyiga ish haqi sifatida ota - onalar tomonidan oziq ovqatlar, kiyimlar, ba'zida pul berilgan. "Buyra puli", "o'tin puli" ham to'lashgan.

Bu maktablarda o'qitishning sifati otinoyining bilim darajasiga bog'liq bo'lgan.

Qizlar maktablarida ham xijjalab o'qish usulidan savod chiqarilgan. Ya'ni alfavit yodlanib, so'ngra harflar qushib o'qish mashq qilingan. Uy - ruzg'or ishlariga oid mehnat ko'nikmalari o'rgatilgan.

Maktabni muvaffaqiyatli tugatgan qizlar tuman miqyosidagi otinlar maktabida o'qishni davom ettirgan. Saroy a'yonlarining qizlari, ayollari maxsus fanlar: adabiyot, musiqa, she'riyatdan ma'lumotlar berishgan.

Uvaysiy Umarxon sarofida shoira sifatida she'r san'ati, musiqasidan muallimlik qilgan. U o'z maktabida ham qizlarga boshlang'ich ta'lim bilan birga she'riyat o'rgatadi. U o'z shogirdlariga bilim olishga intilish har bir insonning burchi ekanligini uqtiradi, ilm - ma'rifat kishini guzal qiladi deb ta'kidlaydi. U o'z chistonlari bilan shogirdlari zehnini o'stirishga harakat qilgan. O'quvchini mushohada yuritishga o'rgatgan. U muammo va muvashshax san'atini ham bilgan, ular orqali ham qizlarning she'riy qobiliyati, zehnini chuqurlashtirgan.

Uvaysiydan 4 ta devon qolganligi atstiladi. Uning she'rlarida insoniy muhabbat, go'zallik ifodalanadi. Vafosizlik, bemehrlilik, yolg'onchilik, subutsizlik kabi illatlar qoralanadi.

Shoira o'z maktabdorlik va ijodiy faoliyati bilan yoshlar ta'lim - tarbiyasiga katta hissa qo'shdi.

Moxlaroyim - Nodira (1792-1842) Andijonda hukmdor oilasida tug'iladi. U 1808 yili Qo'qon hokimi Umarxon bilan turmush quradi. U madaniyat, adabiyot ahllariga rahnomalik qiladi. Shaharlardan olimlar, hattotlar, naqqoshlarni o'z xizmatiga oladi

Nodira o'zi ham o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan. Uning she'rlari, qarashlarida tarbiyaga oid fikrlari ham ko'zga tashlanadi. Uning fikricha inson barcha mavjudotlarning eng oliysi, eng ulug'idir. Inson hayot go'zalligidan bahramand bo'lmog'i lozim.

Shoiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari adolat, insof, xalq manfaati muhim o'rin egallaydi.

Nodira hayotining tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Inson o'zidan keyin yaxshilik bilan nom qoldirish kerak.

25

U chinakam do'slikni targ'ib qiladi. shoira o'z she'rlarida barkamol insonni ulug'laydi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy (1740-1843) Qoshg'arda kambag'al dehqon oilasida tug'iladi. Uning qoldirgan merosidan pedagog - olim ekanligini bilib olamiz. Uning "Odob as-solixin" (Yaxshi kishilar odobi), "Zubdat al - masoyil" (Masalalarning qaymog'i), "Kumakdoshlarning durdonasi", "Xojalar tazkirasi" asarlari bizgacha etib kelgan.

"Odob as-solixin" muqaddima, 7 bob hamda har bir bob 4 fasldan iborat. Asarda odob qoidalari: salomlashish va ruxsat surash, muloqot odobi, uxlash va yo'l yurish, suhbatda o'zini tutish, er-xotin odobi, tozaliq qoidalari, mehmon kutish, ziyofat va ovqatlanish odobi, safar qoidalari bayon etiladi.

Er - xotin odobiga oid fikrlar ham muhimdir. U xotinning 4 narsada: umrda, komatda, molda va nasabda erdan past va 4 narsada: husnda, xulqda, adabda va iffatda erdan yuqori bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

Asarda kasal holini so'rash, ta'ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritiladi. Biror kishi vafot etsa, uni dafn etgandan sung har kim o'z ishiga ketishi lozimligi, yig'ilishib o'tirmaslik, turli tadbirlar qilib odam yig'maslik kerakligi aytib o'tiladi. Qabr ustiga pishiq g'isht, tosh va boshqalarni qo'yish qubba va imorat qilishni bad'at sanalishini ta'kidlaydi. Qabrni qabristonni ziyorat qilish odobi haqida ham gapiradi.

Asarda ziyofat va mehmondorchilik odobi haqida ibratli fikrlar beriladi. Shu bobda emak - ichmak odobiga ham to'xtaladi.

Umuman olganda Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-salixin" asari yoshlarning barkamol, ma'naviy etuk, yuksak axloqli qilib tarbiyalanishida katta o'rin tutadi. Asar kundalik turmushimizdagi

uchraydigan, har daqiqada zarur bo'lgan odob - axloq, yurish - turish qoidalarini ko'rsatib beradi.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-) XIX asrning atoqli adibi va tarjimonidir. U yoshligida tog'asi Munisning tarbiyasida bo'ladi. Sungra Xivadagi madrasada o'qiydi. Fors, arab tillarini o'rganadi. U o'z faoliyati davomida Mirxondning "Ravzat us-safo", Muhammad Mahdixonning "Nodiranoma", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ahmad Xiraviyning "Tabkoti Akbarshohiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Ravzat us-safon Nasriy" kabi tarixiy, Nizomiddin Ganjaviyning "Xaft paykar", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Dehlaviyning "Xasht bixisht", "Jomiyning "Bahoriston", Hiloliyning "Shohi gado", Vosifiyning "Badoe' ul-voqe'" kabi adabiy asarlarini, Kaykovusning "Qobusnoma", Voiz Koshifiyning "Axloqi Muxsiniy" kabi falsafiy - axloqiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi.

Ogahiyning "Ta'viz ul-oshikin" (Oshiqlar tumori) nomli she'riy devonida yaxshilik, olijanoblik, poklik, to'g'rilik, himmat, shijoat, mardlik, saxovat, iffat, hayo, vafo, qanoat sifatlarni ulug'lanadi, nodonlik, munofiqlik, yolg'onchilik, xiyonat, haad, g'iybat, xasislik kabi illatlar qoralanadi.

U yaxshilik qilishni insoniy burch deydi, xalqa yaxshilik qilish ma'naviy qashshoqlikning oldini oladi, deb biladi.

26

Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keladi. Maktabda, so'ngra Abdumalikboy madrasasida o'qiydi. Yoshligidan she'rlar yozadi.

1904 yili tinimsiz harakatlardan so'ng Mirobodda yangi usulda maktab ochadi. 1907 yili uning muharrirligida «Shuhrat» gazetasi chiqq boshlaydi. 1909 yili «Jamiyati xayriya» ochib, bolalar o'qishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatadi. Maktabining dovrug'i keng tarqaladi, chor hukumati talabi bilan o'lka ma'muriyati maktabini 1908 yili yopadi.

1909 yili Avloniy endi Degrez mahallasida maktab ochadi. Darsliklar yozishga kirishadi. 1909-1917 yillarda uning «Birinch muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Maktab gulistoni», «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plami nashr etiladi.

1913 yili yozilgan «Turkiy guliston yoxud axloq» axloqiy va ta'lim-tarbiyaviy asar bo'lib, unda «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm-axloq» haqida fikr yuritiladi.

Bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va tarbiya «yo hayot yo mamot masalasi» deb biladi. Bu fikrga yurtboshimiz ham alohida munosabat bildirganlar:

«Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzabdir».

Yurtboshimiz bergan bu baho Avloniy g'oyalarining hozirgi kunimiz uchun ham muhimligini, ulardan keng foydalanishimiz zarurligini ko'rsatadi.

Avloniy ma'rifatparvarlik faoliyatini boshqa sohalarada ham davom ettiradi. U 1913 yili 1 o'zbek teatr gruppasi «Turkiston»ni tuzadi. O'zi dramalar yozib beradi. «Turon» gazetasini chiqaradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) Qo'qonda tabib oilasida tug'iladi. Maktab, keyin madrasada o'qiy boshlaydi. Lekin madrasadagi ta'limdan qoniqmay, mustaqil ravishda klassiklarimiz asarlarini o'rganadi.

16 yoshdan yozuvchilikni boshlaydi. 1911 yili Qo'qonning Hojibek go'zarida maktab ochib, etim va kambag'al bolalarni o'qitadi. Kambag'al bolalarni o'qiy olishlari uchun «Yordam jamiyati» tashkil etadi. Kattalar uchun kechki kurs tashkil qiladi. Bunga 16 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan kishilarni qabul qiladi.

Chor hukumati amaldorlari Hamzaning maktabini xavfli deb topib, uni yopadi va o'zini ta'qibga oladi. 1913-14 yillarda chet ellarga ketadi.

1914 yili qaytib kelgach, kambag'allar uchun tekin maktab ochishga harakat qiladi. 1914 yil 4 oktyabrda «Etimlar maktabi» ochadi, lekin bu tezda yopiladi.

Hamza Marg'ilonga ketadi va u erda bir kishining tashqi hovlisida 1915 avgustda yangi usul maktab ochadi, muallimlar tayyorlaydigan kurs tashkil etadi.

Hamza 1914 yili «Birinchi sinf talablari uchun maxsus engil adabiyot» va 2- sinflar uchun «O'qish kitobi» tuzadi.

Hamza 1918 yildan Farg'onada o'qituvchilik ishini davom ettiradi.

1919 yildan Qo'qondagi 1 son boqimsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Xorazm va Qoraqalpog'istonda ishlab keladi.

35

«Aholi geografiyasiga kirish», «Rossiyaning qisqacha geografiyasi» kabi asarlarni yaratdi. «Behbudiy nashriyoti»ni tashkil etib, unda darsliklar, Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasini bosib chiqaradi. Samarqandda kutubxona va qiroatxona ochishga boshchilik qiladi. Drammaturgiya sohasida qalam tebratadi (m-n, «Padarkush»),.

Behbudiy 1913 yildan «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini chiqara boshlaydi.

U til o'rganishga yoshlarni da'vat etadi. Diniy ilmlar va dunyoviy ilmlar ulamolari kerak deb biladi. Behbudiy o'z maktabi uchun o'quv reja va dasturlar ishlab chiqadi. Uning maktabi 2 qismdan iborat edi: 1. Ibtidoiy qism. 2. Rushadiya. Birinchi bosqich 4 yil, 2 bosqichi ham 4 yil bo'lgan va unga birinchi bosqichni tugatganlar olingan.

U ilmning jamiyat rivojidadagi rolini yaxshi tushungan va yoshlarni ilm o'rganishga chaqiradi, «Padarkush» dramasida ham ilmsizlikni qoralaydi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov (1872-1931) Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug'iladi. Onasi otinoyi bo'ladi.

1901 yili birinchi jadid maktabini ochadi. Yangi maktablar uchun tovush usulida «Adibi avval» (1907), «Adibi soniy» darsliklarini yozadi. 1906 yili Ismoil Obid muharrirligida «Taraqqiy» gazetasini tashkil qiladi. Darsliklari qayta-qayta nashr qilinadi.

Munavvar Qori o'rta maxsus va oliy ta'lim asoschisi sifatida 1916 yil 9 aprelida o'z uyida to'plangan jadidlar bilan birga Turkiston xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish yuzasidan komissiya tuzadi. O'zi raislik qiladi. 3 bosqichdan iborat dastur tuziladi.

1918 yil 13 may, yakshanba kuni Dorilfunun (hozirgi yosh tomoshabinlar teatri binosida) ochiladi. Munavvar Qori rais (rektor), Iso To'xtaboev 1-, Burxon Habib 2-, muovin qilib belgilanadilar. O'qituvchilar soni 190 ga etadi. Ular orasida Fitrat, Kamol Shams, Haydar Shavqiy va boshqalar bor edi.

Shu munosabat bilan Toshkent davlat universitetiga Milliy universitet nomi berildi.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886-1938) Buxoroda tug'iladi. Dastlab maktabda, so'ngra Mirarab madrasasida o'qiydi. U adabiyot, tarix, falsafani chuqur o'rganadi. 1909 yili «Jamiyati xayriya» ko'magida Turkiyaga o'qishga ketadi. 4 yil o'qiydi. U erda «Munozara» va «Hind sayyohi qissasi» asarlarini yozadi. Bunda Buxorodagi o'quv-o'qituv ishlari, ularni tubdan o'zgartirish masalalariga e'tibor beriladi. «Rahbari najot» (1913), «Oila» (1916) asarlari, «O'quv» (1917) darsligini yozadi. 1922-23 yillarda Buxoro xalq maorifi noziri bo'lib, chet ellarga o'qishga talaba va o'quvchilar yuborishga rahbarlik qiladi. 1923-24 yillarda Moskva va Leningrad (Peturg)da yashab ijod qiladi, professor bo'ladi. Keyin qator oliy o'quv yurtlari, tadqiqot institutlarida pedagogik va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

«Rahbari najot» asarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor beradi, fanlar tasnifini yaratadi. O'zining didaktik qarashlarini bayon etadi. «O'quv» darsligi ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, turmush odobiga oid ko'plab mavzular berilganki, ulardan hozirgi tarbiya ishlarida ham keng foydalanish mumkin.

Olim inson qadr - qimmatini uning oltin - kumush bilan emas balki ilmu - hunari, kishilarga himmati va muhabbati bilan o'lchanadi. U ilm o'rganish, til bilishga, yoshlarni nafosat tarbiyasiga ham alohida e'tibor beradi. U davlat boshlig'iga xos bo'lgan fazilatlar haqida ham fikr bildiradi.

Munis Xorazmiy (1778 -) shoir, tarixchi, tarjimon va kalligraf olimdir. Maktab, madrasada o'qiydi. Mumtoz adabiyotni o'rganadi. Uning ijodida "Savodi ta'lim" asari ta'limiy jihatdan muhim o'rin tutadi. Asarning 1 - qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik, kerakli o'quv anjomlari haqida gapiriladi. 2-qismida esa xat mashqi xususida amaliy ta'lim beriladi.

Munis Xorazmiy o'z she'rlarida xalqning orzu istaklarini aks ettiradi, ma'rifatparvarlik g'oyalari o'lg'a suradi, xalqni bilimli, adolatli bo'lishga da'vat etadi. U tarbiyaviy qarashlarida do'stlik, vafo masalasiga e'tibor beradi.

Umuman, Munis Xorazmiy o'zining pedagogik qarashlarida rostguylik, do'stlik, vafo, adolat, shirinsuzlikni ulug'ladi, xalqni savodli bo'lishga, ilm o'rganishga chaqiradi.

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Uvaysiy va Nodira she'rlaridan to'plab, ularni ta'lim - tarbiyaviy jihatdan tahlil qilish.

Muhammad Sodik Qoshg'ariyning "Odob as-solixin" asari asosida tarbiyaviy tadbirga tayyorgarlik va uni o'tkazish.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

XV asr va XVI asr boshlaridagi madaniy, iqtisodiy tushkunliklarga nima sabab bo'ldi?

Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida madaniy - ma'rifiy yuksalish boshlanganligini nimalarada ko'rish mumkin?

Jahon Otin Uvaysiy ijodi haqida nimalar bilasiz?

Otinoyi maktablaridagi ta'lim mazmuni haqida gapirib bering.

Uvaysiy o'z pedagogik faoliyatida qanday ta'lim usullarini o'llaydi?

Kim Uvaysiy chistonlaridan misol keltira oladi?

Nodira ijodida insonparvarlik ulug'lanishini misollar bilan ko'rsata olasizmi?

Muhammad Sodik Qoshg'ariyning qanday asarlarini bilasiz?

"Odob as - solixin"dagi er - xotin odobi, mehmon kutish odobiga sizning munosabatingiz?

Ogahiyning tarjimonlik faoliyati haqida gapirib bering.

27

29 - MAVZU. XIX ASRNING 2-YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.

REJA:

1. Turkiston o'lkasida diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar. Chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Rus-tuzem maktablari.
2. Turkiston o'lkasida pedagogik fikrlar va ularning taraqqiyoti. (Furqat, Ahmad Donish, Shakuriy, Siddiqiy, Aziziy, I.Rahmatillaev va boshqalar).
3. Turkistonda jadidchilik ma'rifati va ta'lim-tarbiya.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitratning ma'rifatparvarlik faoliyatlari va pedagogik g'oyalari.
5. Abdulla Avloniy va H.H.Niyoziyning pedagogik faoliyatlari va qarashlari.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida talab etilganidek ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustivorligiga erishishimiz, yoshlarda «boy milliy madaniy-tarixiy ana'nalarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat» tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun esa tariximizning har bir davrini ob'ektiv o'rganishimiz, unga haqqoniy baho berishimiz va har bir davrdagi ilg'or qarashlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga olib kirishga harakat qilishimiz kerak. Yurtboshimiz bu masalaga o'z asarlarida alohida e'tibor berib kelmoqdalar.

XIX asr madrasalarida O'rta asrga oid diniy falsafa, musulmon huquqlari, arab tili grammatikasi, mantiq ilmlari o'qitilgan. Uni tugatib imomlik qilish yoki qozinxonada ishlash mumkin bo'lgan. Maktab va madrasalarda dars o'zbek, arab, fors-tojik tillarida olib borilgan. Asosan o'g'il bolalar o'qigan.

Ta'lim tizimi 5 toifaga bo'lingan edi:

Quyi-boshlang'ich diniy maktab.

Qorixona.

Daloilxona

Maktab internat

Madrasa

Boshlang'ich diniy maktablar keng tarqalgan edi, shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30 taga, qishloqda 10-15 taga etgan. O'qishga 6 yoshdan qabul qilingan, o'zlashtirishiga qarab 7-12 yil o'qishgan. Bularda Alifbe, Xaftiyak, Chor kitob, Sufi Olloyor, Qur'on o'rgatilgan.

Qorixonada asosan Qur'on yod oldirilgan. Uni bitirganlar xalq orasida Qur'on sura va oyatlarini aytib berib yurgan. Qorixonalar katta maktablar yoki mozarlar qoshida ochilgan. Katta shaharlarda ko'p bo'lgan. Ularga maktabni tugatgan 10 yoshdan katta o'g'il bolalar qabul qilingan. 3-4 yil o'qilgan. Qorixonalar madrasalar kabi vaqfga berilgan er-joy, mollar hisobiga ta'minlangan.

1900 yili Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatida 333 ta qorixona bo'lib, 1203 o'quvchi o'qigan.

Jadidchilikning asoschisi qrim-tatar ma'rifatparvarlaridan bog'chasaroylik Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) hisoblanadi. U «usuli savtiya»ni boshlab berdi. Barcha turkiy xalqlarni yagona millat deb bildi, millatning ravnaqi uchun kurashdi.

1883 yili «Tarjimon» gazetasini chiqara boshlaydi.

1884 yili 12 bolani «usuli jadid»da o'qita boshlaydi. Bolalar 40 kunda savod chiqarishadi. Imtihon o'tkazadi. Ular uchun «Xujai siben», «Bolalar muallimi» birinchi darsligini tuzadi.

Yangi usul maktablarda quyidagilarga e'tibor qaratilgan edi:

sinfda bolalar 30 dan oshmasligi;

2 marta yoz va qishda bolalarni maktabga qabul qilish;

1 muallimda 3-4 sinf bulishi;

dars 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus;

juma va bayram kunlari dam olinishi, yozda ta'til bo'lishi;

dars zerikarli bo'lmasligi, bolalarni urish, so'kish mumkin emas.

I.Gaspirali usuli jadid bilan o'qitishning qoidalarini shunday tushuntiradi: a) Butun alifboni birdan o'rgatish og'irdir, boshda 3, 5 harf o'rgatib borish engil. b)...birinchi darsdan bolalar yozishni boshlamasliklari lozim. v) Darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratilib o'rgatilishi lozim. g) Bir harfni o'zlashtirmay turib, ikkinchisiga o'tmaslik kerak. d) Harflar bilan tanishtirilganda ular haqida kengroq ma'lumot berish lozim.

Uning ta'sirida ko'plab jadid ma'rifatparvarlari etishib chiqdi.

Jadidlar xalqqa ma'rifat va madaniyat tarqatish yo'lini maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi usul maktablar ochish, tijoratni rivojlantirish, gazeta va jurnallar chiqarish, teatr, kutubxonalar barpo etishdan iborat deb bildilar.

Ular «Taraqqiy» (1906), «Samarqand» (1913-15), «Sadoyi Turkiston» (1914-15), «Oyna» (1913-15), «Buxoroyi Sharif» (1912-13) va boshqa matbuot organlarini tashkil qildilar. O'z hisoblaridan darslik va o'quv qo'llanmalari chiqardilar. Teatrchilikka asos solindi. Ko'plab teatr gruppalari paydo bo'ldi. Drammaturgiya maydonga keldi. Publitsistika rivojlandi.

Jadidlar maktab va madrasalarda diniy va ilmiy-dunyoviy ilmlarni birga qo'shib olib borishga harakat qildilar.

Jadidlarning yirik vakillaridan: Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Siddiqiy, Aziziy, Shakuriy, Avloniy va boshqalar bo'lib, ularning ayrimlari faoliyati bilan tanishsak.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919) Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida tug'iladi. U adabiyot, tarix, geografiya, islom tarixi, siyosatshunoslik bilan shug'ullanadi. 27 yoshida Makkaga borib, hoji va mufti unvonlari bilan qaytadi.

Behbudiy 1899 yildan sayohatlarga chiqadi. Misr, Istanbul, Qrim, Qozon, Kavkazning ko'plab shaharlarida bo'ladi.

U o'lkada usuli jadid maktablarining eng birinchi nazariyotchisi va amaliyotchilaridan, jadidchilikni boshlaganlardandir.

Rajabamin qishlog'ida Shakuriy ochgan maktabni 1908 yili o'z hovlisiga ko'chirib keladi, unga har tomonlama yordam beradi.

U o'zbek va tojik tillarida «Kitobul-atfol» (Bolalar kitobi), «Muxtasari tarixi islom» (Islomning qisqacha tarixi), «Amaliyoti islom»,

Saidrasul Aziziy (1866-1933) Toshkentda ziyoli oilasida tug'iladi. Eski maktab, so'ngra «Madrasai Mahmud dasturxonchi»da (Toshkent) o'qiydi. 1 rus-tuzem maktabini ham bitiradi. O'qigan madrasasida mudarrislik qiladi. 1900 yildan rus-tuzem maktabiga ham taklif qilinadi. U o'zbeklar orasida birinchi bo'lib rus-tuzem maktabida dars beradi. Keyin Toshkent o'qituvchilar seminariyasida «sharqiya muallimligi»ni olib boradi. Uni rus tilini yaxshi bilgani, rus maktabida dars bergani uchun «nasora maxsum» (kofir maxsum) deb ataladi.

Aziziy o'z ijodini shoir sifatida boshlaydi, lekin u madaniyatimiz tarixiga ko'proq islohatchi pedagog sifatida shuhrat topdi. 1900 yili «Ustozi avval» kitobini yozdi, 1902 yil bosilib chiqdi. U yangi maktablarni (tovush usuli) «usuli savtiya» maktablari deb atadi. Bular o'zbek pedagogikasi va metodikasida reforma yasadi. Aziziy «usuli savtiya»ning asoschilaridan biri sifatida shuhrat topdi.

Aziziyning «Ustozi avval» darsligi alifbe xarakterida bo'lib, 1-sinflarga mo'ljallangan.

Folklor, Sharq va o'zbek klassik adabiyotidan foydalanib yozilgan hikoyalar («Matonat», «Xat», «Beodob», «Ikki oshna», «Chaqimchi»).

Rus klassik adabiyotidan qilingan tarjimalar. («Qiloqi birla bolasi», «Tulki birla uzum», «Yolg'onchi cho'pon», «Vatani rus»).

Adibning o'zi yaratgan hikoyalar («Hamokat», «Beforosat», «Aqli o'g'il», «Zuluk birla ilon», «Bir necha do'stlik uchun ahd qilgan musofirlar», «Onaga hurmat», «Poklik» kabilar).

Darslikka kiritilgan hikoyalarda nodonlik, beodoblik, chaqimchilik, takaburlik kabi xususiyatlar qoralanadi. Aql va donolik, farosat va xushfe'llik ulug'lanadi.

Darslik boshida o'qituvchilarga ham ko'rsatmalar beriladi. Bu darslik shuhrat qozonadi va shuning namunasida ko'plab darsliklar yaratila boshlaydi. Aziziy yangi maktab yuksalishiga munosib hissa qo'shgan mutafakkirlardan biri bo'lib qoldi.

Mavzumizning birinchi masalasida gapirganimizdek, chor hukumati O'rta Osiyoda feodal-patriarxal tuzumni saqlab qolib, xalqni qashshoqlikda, qullikda tutishga harakat qiladi. Mahalliy xalqning maorifi, adabiyoti, ozodlik g'oyalarini ilgari surish vositalari rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan choralarni ko'rdi. Mahalliy amaldorlarning ham zulmi shu davrlarda kuchayadi.

O'tkazilayotgan zulmlar, ommaning ma'rifiy qashshoqligi, nodonlik, maktabning inqirozi, madaniy ortga ketish bularning hammasi endilikda chidab bo'lmaydigan hayot tarzi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun mamlakatdagi ilg'or, taraqqiyparvar kuchlar birlashib, islohat, o'zgarishlar orzusini qila boshladilar. Ular avvalo, maktab-maorifini, keyin esa ijtimoiy tuzumni isloh qilish g'oyalarini olg'a surdilar. Bular jadid nomini olgan bo'lib, jadid so'zi «yangi» degani bo'lib, yangilik tarafdorlari degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik ijtimoiy tafakkurning alohida bir oqimi sifatida XIX asrning 90-yillarida maydonga keldi.

Jadidlar o'rta asr o'qitish usuliga asoslangan ta'limga qarshi chiqib, yangi usulda o'qitishni, qator dunyoviy fanlarni o'quv

jarayoniga kiritishni talab qildilar. Ular ilm-fan, texnika, teatr va matbuotni yuksaltirishga harakat qildilar.

32

Daloilxonalar ham vaqf mablag'idan foydalangan, katta yoshdagi savodi chiqqan bolalar o'qigan. 1-2 oy Qur'on suralari, keyin asosiy kitob «Daloil ul-hayrat» yodlatilgan. Bu XV asrda musulmon ulamolaridan Sulaymon ibn Yazuru tomonidan yozilgan asar bo'lib, unda payg'ambar va avliyolar hayoti yoritilgan. O'qish muddati aniq belgilanmagan, xotirasi yaxshilar 2-3 oyda, qolganlar 1 yil yoki ortiqda yod olishgan.

Maktab internat- o'rta madrasa bo'lib, bularda diniy va dunyoviy fanlar o'qitilgan, o'rta ma'lumot berilgan.

Arxiv hujjatlariga ko'ra 1911 yili yanvarigacha O'rta Osiyoda 10003 ta maktab, 1085 ta madrasa bo'lgan.

Mahalliy bolalardan ilmiy kishilar tayyorlash uchun Xiva xoni Raximxon Bahodirxoni soniy-Feruz (1844-1910) katta ishlar qildi. Uning tashabbusi bilan saroyda maktab ochilib, bunda rus o'qituvchisi va mashhur qorilar dars berganlar.

Feruz farmoni bilan 1904 yil 10 noyabrda Urganchda birinchi yangi usul maktab ochilgan. Unda Turkiyalik Husayn Kushaev ta'lim-tarbiya ishlarini olib borgan. 1906-07 yillarda qizlar maktabi ham tashkil qilinib, uning xotini Komila Kushaeva qizlarni o'qitgan. 1909 yili Feruz qo'l ostidagi madrasalar soni 130 taga, o'quvchilar soni 2300 ga etadi. Feruz Komil Xorazmiyni Toshkentga gimnaziya va maktablarda o'qitish usulini o'rganishga yuboradi. U qaytgach ishlar jonlanib ketadi.

Maktab o'quv dasturi va rejasida- riyoziyot, tarix, geografiya, tabiat, rus tili, ona tili, islomshunoslik fanlarini o'qitish belgilanadi. Sharq mutafakkirlari va rus yozuvchilari asarlari o'rganiladi.

Feruz o'z saroyida tipolitografiya-toshbosimxona tashkil qiladi. Navoiy, Munis kabilarning asarlari nashr etiladi. 1865 yillarda Markaziy Osiyo to'liq Rossiya tasarrufiga o'tadi va o'lkada Turkiston

general-gubernatorligi tashkil etiladi, mustamlakaga aylanadi. Minglab rus oilalari bu erlarga ko'chirib keltirildi.

1870 yili chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D.A.Tolstoy shunday degan edi: «Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona xalqlarning ma'lumotli bo'lishining oxirgi maqsadi, shubhasiz ularni ruslashtirishdan iboratdir».

Ruslashtirish siyosati bilan birga o'qituvchilar ustidan nazorat kuchaydi, mustaqil ish yuritishga imkon berishmadi. Mahalliy maktablar yopildi.

Ruslar Turkistonda bosqinchilik ishlari olib borish, uning boyliklarini talash bilan birga, xalqning urf-odatlarini, tili va dinidan ham ayirmoqchi bo'ldi. Bu o'rinda Fitratning quyidagi fikrini keltirish mumkin: «...imperatorlik hukumati chin kungildan tilar edi: qo'l ostidagi o'zga millatlar ezilsunlar, xarob bo'lsunlar, saodat yuzin ko'rmasunlar, tilanchilar kabi yashasinlar».

Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866 yili ochiladi. Bunday maktablarda ruslar bilan birga mahalliy bolalar ham qabul qilinardi. O'qish faqat rus tilida olib borilardi. Rus o'rta o'quv yurtlari ham ochila boshladi. 1876 yil Toshkentda erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, 1870 yil o'quvchilar seminariyasi ochildi. Bularda diniy bilimlar o'qitilmasdi, shuning uchun mahalliy bolalar kam edi.

1884 yil 19 dekabrda Toshkentning eski shahar qismida birinchi rus tuzem maktabi ochildi. Boshqa joylarda ham ochila bordi va 1904 yili ularning soni 57 taga etdi

29

Rus tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tili, arifmetika va boshqalarni utar, buning uchun o'qish vaqtining yarmi ajratilar, qolgan yarmida esa musulmon domla diniy darslar utardi. 1903 yil Toshkentda qizlar uchun rus tuzem maktabi ochildi. Lekin tezda yopildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ma'rifatparvarlik faoliyati keng yoyilib, qator ziyolilar pedagogik g'oyalar bilan chiqdilar. Shulardan biri Muhammad Amin Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy (1850-1903)-dir.

O'zining sayohatnomalarida, hajviy she'rlarida ilmsizlik, nodonlik, tarbiyasizlikni qoralaydi, ilm-ma'rifatni ulug'laydi.

«Tanobchilar», «Zavodchi boy ta'rifida», «Dodxoxim» she'rlari, «Sayohatnomalarida» kishilarning turli xulq-atvorlarini ko'rsatadi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1858-1909) ma'rifatparvarlardan biri. U 1889 yildan Toshkent, Samarqand, so'ngra Turkiya, Yunoniston, Bolgariya, Misr, Arabiston, Hindiston kabi xorijiy davlat safarlariga chiqadi.

Furqatning «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Teatr haqida majmua», «Vistavka xususida» she'rlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiyani ulug'laydi, u madaniyat, san'at, hunar, odob, aql, texnika taraqqiyoti hammasi ilmdandir deb biladi.

Jahon bastu kushodu ilm birla,

Nadur dilning murodi ilm birla.

Kungillarning sururi ilmdandir,

Ko'rar ko'zlarning nuri ilmdandir.

Ilm-fanni bir mash'alga o'xshatib, mash'al, qorongulni qanday yoritib tursa, ilm-fan ham insoniyatning baxt-saodati va istiqbolini shunday yoritib turishligini ta'kidlaydi.

Ahmad Donish (1827-1897) o'zbek va tojik xalqining mashhur mutafakkiri, olimi va faylasufidir. Uning asarlaridan «Navodir-ul vaqoe» (Nodir voqealar), «Buxoro amirlarining tarjimai hollari», «Yulduzlar tasviri», «Globusdan foydalanish yo'llari» va boshqalar.

XIX asrning oxirlariga kelib o'zbek ma'rifatparvarlarining butun bir avlodi etishib chiqadi. XX asrning 20-yillariga kelib ulangan bu avlod xalqimizning umumiy ma'rifatida, ijtimoiy-siyosiy yuksalishida va yangi turmushga tayyorlashda buyuk xizmat etdi.

Abduqodir Shakuriy (1875-1943) ham shunday ma'rifatparvarlardan biri edi. U Samarqandning Rajabamin qishlog'ida bog'bon oilasida tug'iladi. Eski maktab so'ngra Samarqandda madrasada o'qiydi. U «Tarjimon» gazetasidan ko'p narsalarni o'rganadi. 1901 yilda o'z qishlog'ida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi. Doska va partalar yasattiradi. Tatar tilidagi darsliklardan foydalaniladi.

Chor hukumati bunday maktablar ochilishiga qarshi edi, ularni qattiq nazorat qilardi.

Bu maktab bolalarni 6 oyda savodli qilib chiqarardi. Bunga eski maktab domlari, mulla, eshonlar ham qarshilik qiladilar.

Shakuriy yilda bir marta umumiy imtixon uyushtirib, ota-onalar oldida o'quvchilar bilimini namoyish qildirar edi.

Shakuriy ona tilida darsliklar zarurligini tushunib, bolaning yoshiga mos tarzda, axloq-odob, turmush qoidalaridan dastlabki ma'lumot berishni

30

ko'zda tutuvchi darslik tuzishga kirishadi. Birinchi alifbe kitobi «Raxnomai savod» (Savod chiqarish rahbari)ni yaratadi. Kitobda so'zlar bo'g'inlarga bo'lib ko'rsatilgan, oxirida o'qish uchun kichik xrestomatiya berilgan. U o'z pedagogik faoliyatida «harf-tovush» metodi (har tovushni alohida harf bilan yozish) qulay va osonligini aniqlaydi. 1913 yili uning rahbarligida shogirdi I.Raxmatillaev tovush-harf metodi asosida yangi alifbe tuzadi. U arab alifbosi bilan tojik tilida yozilgan bo'lib, ko'p yillar qo'llanib kelinadi. Kitobning kirishida tez savod chiqarishga oid maslahat berilgan. Alifbe 46 betdan iborat bo'lib, 90 ta dars uchun mo'ljallangan edi.

1907 yili Shakuriyning 2-kitobi «Jameul hikoyat» (Hikoyalar to'plami) yoziladi. U boshlang'ich sinf 2-sinfi uchun xrestomatiya tarzida bo'ladi.

Shakuriy 1923 yili «Pravda» gazetasi e'lon qilgan «Eng yaxshi o'qituvchi» konkursining g'olibi deb topiladi.

Ismatilla Rahmatillaev (1883-1962) xalq ta'limi rivojiga katta hissa qo'shgan peda-goglardan biri. U ham Samarqandning Rajabamin qishlog'ida kambag'al oilasida tug'ila-di. Uning savod chiqarishi va atoqli pedagog bo'lib etishishida Shakuriylar oilasining o'rni kattadir. U eski maktabda, 1901 yildan yangi usul maktabda o'qiydi. Uni tamomlab, 1905 yildan Shakuriy maktabida o'qituvchi bo'lib ishlay boshlaydi. Rus tuzem maktabida ham o'qiydi. Shakuriy «Jameul hikoyat»ini nashr etishda qatnashadi. Tajriba o'rgangach, hozirgi Registon ko'chasida mehnatkashlar bolalari uchun yangi maktab ochadi.

1915 yili «Alifbe ta'limi» kitobini yozadi. Unga ko'plab tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoya va she'rlar kiritilgan.

I.Raxmatillaev pedagog kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shadi. 1922 yilgacha Samarqandda mahalliy o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etishga rahbarlik qiladi.

1922-26 yillarda Samarqandda o'zbek inprosi (bilim yurti) direktori va o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. 1926-33 yillarda «O'zbek davlat kitob palatasi»ga direktor bo'ladi». 1935 yil «Mehnat qahramoni».

Saidahmad Siddiqiy - Ajziy (1864-1927). Samarqandda hunarmand dehqon oilasida tug'iladi. Maktabda, madrasada o'qiydi. Rus maktabida o'qiydi, rus tili, adabiyotini o'rganadi.

1900-01 yillarda Misr, Arabiston, Turkiya, Rossiyaga boradi.

1903 yili qaytib kelib, Xalvoiy qishlog'ida yangi maktab ochadi. Asosan rus tili o'rgatishga ahamiyat beradi. I.Rahmatillaev arifmetikadan dars beradi. U birinchi bo'lib katta yoshdagi kishilar uchun kechki maktab tashkil qiladi.

1914 yili o'quv qurollari, darsliklar sotadigan «Zarafshon» nomli magazin ochadi. Kutubxona ochishda qatnashdi.

Uning «Mir'oti ibrat» (Ibrat oynasi (1912), «Anjumani arvox» (1912), «Ganjinai hikmat» (1914), «Aynul adab» (Odob ko'zi (1915)) she'riy to'plamari chiqadi. She'rlariga «Ajziy» deb taxallus qo'yadi. O'zbek va tojik tillarida yozadi. She'rlarida pedagogik g'oyalarini targ'ib qiladi. Ta'lim-tarbiyadagi eski usullarga qarshi chiqadi.

1911-14 yillarda maktablar ochishda qatnashadi.

Gogolning «Shinel» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1918-21 yillarda Samarqand viloyat adliya komissari bo'ladi, 1921 yildan pedagogik ish bilan shug'ullanadi. «Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi» unvoniga ega bo'ladi.